ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 25-noyabr, 375-son buyrug‘i 4**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2024-yil 16-dekabr, 402-son buyrug‘i 9**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash hamda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish yuzasidan belgilangan vazifalar bajarilishini o‘rganish to‘g‘risida”g**i 2024-yil 20-dekabr, 407-son buyrug‘i 12**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2025-yil 3-yanvar, 4-son buyrug‘i** 16

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Nodavlat maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jarayonlarini raqamlashtirish haqida’’gi **2025-yil 13-yanvar, 5-son buyrug‘i** 22

“Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2025-yil 13-yanvar, 7-son buyrug‘i..... 26**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2025-yil 13-yanvar, 8-son buyrug‘i 36**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga

nomzodlarni saralashning I bosqichi g‘oliblari uchun kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda saralashning II bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2025-yil 10-yanvar 17-son buyrug‘i 50**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning birinchi (viloyat) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2025-yil 22-yanvar, 19-son buyrug‘i..... 68**

“Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to‘g‘risida nizom hamda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibini tasdiqlash haqida”gi **2025-yil 28-yanvar, 23-son buyrug‘i..... 82**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “2024-2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi **2025-yil 29-yanvar, 24-son buyrug‘i 104**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining “2025-2026-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 29-yanvar, 28-son buyrug‘i 110**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

2025-yil 1-martdan boshlab musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun malaka oshirish ta’lim dasturining nazariy qismi A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida (keyingi o‘rinlarda - markazlar), amaliy (ijodiy) qismi bolalar musiqa va san’at maktablarida tashkil etilishi va markazlarga ishga qabul qilinadigan musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari mehnatiga soatbay asosda ish haqi to‘lanishi;

2025-yil 1-sentabrdan boshlab bolalar musiqa va san’at maktablarining belgilangan o‘quv dasturlarini to‘liq yakunlagan, 11-sinfni tugatgan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomaga ega bo‘lgan bitiruvchilarga “Barkamol avlod” bolalar maktablarida to‘garak rahbari sifatida ishlash huquqi berilishi;

madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturi doirasida psixologiya va pedagogika fanlarini o‘rgangan musiqa yo‘nalishi bitiruvchilariga maktablarda musiqa madaniyati fanini o‘qitishga ruxsat berilishi;

madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari

bitiruvchilarining bitiruv oldi amaliyoti kelishuv asosida maktablarda tashkil etilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish boshqarmasi (S.Raximboyev):

2025-yil 1-iyulga qadar musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat berish tizimini ishlab chiqishda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlik qilsin;

ikki oy muddatda musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga malaka toifalarini berish bo'yicha yangi tartibini ishlab chiqsin hamda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. Maktabdan tashqari ta'lim bo'limi (I.Xoldarova):

2025-yil 10-martga qadar "Turon" maktab teatrining ijobiy tajribasi asosida maktablarda "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yishda Madaniyat vazirligi bilan hamkorlik qilsin;

2025-yil 1-apreldan boshlab "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari o'rtasida "Iqtidor maktab ansambli" respublika tanlovini Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etsin;

"Iqtidor maktab ansambli" respublika tanlovi nizomini ishlab chiqishda, har yili milliy va jahon musiqasi yo'nalishlari bo'yicha maktablarning badiiy havaskorlik jamoalari o'rtasida o'tkazilishini hamda tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini xorijiy davlatlarga ta'lim sayohatiga yuborilishini nazarda tutsin.

5. O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta'lim markazi (Sh. Xudaykulov), AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda **ikki oy muddatda** maktablarda darsdan tashqari tashkil etilgan "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari uchun 7 turdagi milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishni o'rgatish bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar, notalar va videodarslarni ishlab chiqish choralarini ko'rsin.

6. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev) **ikki oy muddatda:**

Madaniyat vazirligi bilan birgalikda musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini malaka oshirish ta'lim dasturining nazariy qismi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat

markazlarida hamda amaliy (ijodiy) qismini bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etish choralarini ko'rsin.

Bunda, malaka oshirish kursining amaliy (ijodiy) qismini o'qitishda bolalar musiqa va san'at maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini pedagogik mahorat markazlariga ishga qabul qilish hamda soatbay haq to'lanishi inobatga olinsin.

Madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarning o'quv dasturiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish bo'yicha Madaniyat vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taklif kiritsin.

7. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov):

2025-yil 1-iyunga qadar bolalar musiqa va san'at maktablarining belgilangan o'quv dasturlarini to'liq yakunlagan, 11-sinfni tugatgan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomaga ega bo'lgan bitiruvchilarga "Barkamol avlod" bolalar maktablarida to'garak rahbari sifatida ishlash huquqini berish bo'yicha "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garak rahbarlari malaka tavsiflariga tegishli o'zgartirishlar kiritsin;

madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarning o'quv dasturi doirasida psixologiya va pedagogika fanlarini o'rgangan musiqa yo'nalishi bitiruvchilariga maktablarda musiqa madaniyati fanini o'qitishga ruxsat berilganligini inobatga olib, tegishli malaka tavsiflariga o'zgartirishlar kiritsin.

8. Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi (I.Xoldarova), Yuridik boshqarma (O.Ibroximov) **2025-yil 15-fevralga qadar** qonunchilik hujjatlariga qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Madaniyat vazirligiga takliflar kiritsin.

9. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni **bir kun muddatda** vazirlikning tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

10. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 25-noyabr,
375-son

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va
maktab ta’limi vazirining 2024-yil
16-dekabrdagi 402-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining 2025-yilda malaka oshirish YO‘NALISHLARI

T/r	Malaka oshirish yo‘nalishlari
	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlari
1.	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari
2.	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari
3.	O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari (Ona tili va adabiyoti)
4.	Qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilari
5.	Rus tili va adabiyoti (rus sinflarda) o‘qituvchilari
6.	Tojik tili va adabiyoti o‘qituvchilari
7.	Qirg‘iz tili va adabiyoti o‘qituvchilari
8.	Qozoq tili va adabiyoti o‘qituvchilari
9.	Turkman tili va adabiyoti o‘qituvchilari
10.	Ingliz tili o‘qituvchilari
11.	Nemis tili o‘qituvchilari
12.	Fransuz tili o‘qituvchilari
13.	Rus tili (o‘zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o‘qituvchilari
14.	Davlat (o‘zbek) tili o‘qituvchilari
15.	Davlat (qoraqalpoq) tili o‘qituvchilari
16.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (o‘zbek sinflarda)
17.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (qoraqalpoq sinflarda)
18.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (rus sinflarda)
19.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (tojik sinflarda)
20.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (qirg‘iz sinflarda)
21.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (qozoq sinflarda)
22.	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari (turkman sinflarda)
23.	Kimyo o‘qituvchilari

24.	Biologiya o‘qituvchilari
25.	Geografiya o‘qituvchilari
26.	Fizika o‘qituvchilari
27.	Tabiiy fan o‘qituvchilari
28.	Matematika o‘qituvchilari
29.	Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilari
30.	Tarix o‘qituvchilari
31.	Davlat va huquq asoslari o‘qituvchilari
32.	Musiqa madaniyati o‘qituvchilari
33.	Tasviriy san’at va chizmachilik o‘qituvchilari
34.	Texnologiya fani o‘qituvchilari
35.	Iqtisodiy bilim asoslari o‘qituvchilari
36.	Tarbiya fani o‘qituvchilari
37.	Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktablar va maktab-internatlar texnologiya o‘qituvchilari
38.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari professor-o‘qituvchilari
39.	Umumta’lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari
40.	Barkamol avlod bolalar maktabi to‘garak rahbarlari
41.	Umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari
42.	Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktablar va maktab-internatlar tarbiyachilari
43.	O‘qituvchi-logoped
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari	
44.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosarlari
45.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologlari
46.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘qituvchi-defektologlari
47.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘qituvchi-logopedlari
48.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari
49.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari
50.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti til o‘qituvchilari
51.	Maktabgacha ta’lim tashkiloti oshpazlari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda malaka oshirishni xodimlarning kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqib differensiallashgan ta’lim dasturlari asosida tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1.2025- yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining direktorlari uchun malaka oshirish kurslari menejerlik o‘quv kurslari uchun joriy etilgan tartib asosida, pedagog va mutaxassis kadrlar uchun - variativ (ixtiyoriy tanlov) va invariant (majburiy) modullardan iborat bo‘lgan differensiallashgan ta’lim dasturlari bo‘yicha tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining 2025-yilda malaka oshirish yo‘nalishlari 1-ilovaga;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish kurslarining o‘quv rejalariga tushuntirish xati 2-ilovaga;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish kurslarining invariant o‘quv dasturi 3-ilovaga;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining ikkinchi toifali va malaka toifasi bo‘lmagan pedagog, mutaxassis va rahbar xodimlari malakasini oshirish (keyingi o‘rinlarda - “Rivojlantiruvchi”) kurslarining o‘quv reja va dasturlari 4-39-ilovalarga;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining oliy va

birinchi malaka toifali pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish (keyingi o‘rinlarda - “Yuksaltiruvchi”) kurslarining variativ o‘quv reja va dasturlari 40-64-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (AJsmailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) Pedagogik mahorat markazlari bilan hamkorlikda joriy yilning 30-dekabr kuniga qadar “Rivojlantiruvchi” va “Yuksaltiruvchi” malaka oshirish kurslarining kontentini

(texnologik xarita, ma’ruza matni, amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, taqdimot materiallari, tinglovchilar bilimini nazorat qilish uchun test va keys topshiriqlari, mustaqil ta’lim olish uchun materiallarni) ishlab chiqsin.

Bunda, quyidagilarga alohida e’tibor qaratilsin:

“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da maktabgacha va maktab ta’limi tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosini ta’minlash;

Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida keng tatbiq etish;

pedagog kadrlarga kasbiy, jamoaviy, individual kompetensiyalar va xalqaro baholash dasturlariga (PISA, TIMSS, PIRLS) asoslangan zamonaviy metodikalarni o‘qitish;

bolalar huquqini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi va unga qarshi kurashishga doir masalalar bo‘yicha tinglovchilarda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

pedagog kadrlarning malakasini oshirish sohasidagi xorijiy tajribalarni, shu jumladan, ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL) metodlarini o‘rgatish.

4. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari rahbarlari (direktor va direktor o‘rinbosarlari) va professor- o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda:

direktor va direktor o‘rinbosarlarining malaka oshirishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida;

professor-o‘qituvchilarining malaka oshirishi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida, Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi asosida, ilg‘or xorijiy tashkilotlardan trenerlarni jalb qilgan holda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda tabaqalashgan ta’lim dasturlarini joriy etish haqida”gi 70-XDFU-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni markaziy apparatning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 16-dekabr,
402-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash hamda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish yuzasidan belgilangan vazifalar bajarilishini o‘rganish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash hamda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2024-yil 14-oktabrdagi 171-son majlisi bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda barcha turdagi ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishini tanqidiy o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - Ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda barcha turdagi ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishini tanqidiy o‘rganish bo‘yicha reja-grafik 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarning davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlaridan qay darajada xabardorligini aniqlash;

vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda barcha turdagi ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlarining lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishini tanqidiy o‘rganish;

vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatida davlat tili haqidagi qonun talablarining buzilishi jumladan, imlo qoidalarini buzish, ish hujjatlarini yuritish va ichki

idoraviy hujjatlarni qabul qilishda belgilangan talablarga rioya qilmaslik, tashqi axborot matnlarida davlat tili normalarini buzish holatlari bo‘yicha tahlil qilish;

vazirlikning barcha darajadagi rahbar va boshqaruv xodimlarini lavozimga tayinlashda davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatlari mavjudligiga e’tibor qaratilganini o‘rganish;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning veb-saytidagi axborotlar davlat tilida taqdim etilishi talablari qay darajada bajarilganligini aniqlash.

3. Ishchi guruh (A. Turdiyev):

vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarning ish yuritish hujjatlari hamda ko‘rgazmali boshqa axborot matnlarining davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga mosligi yuzasidan aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rsin;

davlat tili haqidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirishning dolzarbligini hudud mas’ullari ishtirokida muhokama qilsin;

xodimlarning savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazsin;

o‘rganishlar natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni o‘rnatilgan tartibda rahbariyatga taqdim etilishini ta’minlasin.

4. Vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilot rahbarlari Ishchi guruhga o‘z faoliyatini amalga oshirish yuzasidan yaqindan ko‘maklashsin.

5. Xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar xodimlarning asosiy ish joyidan to‘lansin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 20-dekabr,
407-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 20-dekabrdagi
407-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda barcha turdagi ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishini tanqidiy o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

T/r F.I.Sh Lavozimi

1. A.Turdiyev **-** Vazir maslahatchisi, *ishchi guruh rahbari*

2. N. Mamaraimova **-** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektor maslahatchisi, *a’zo*

3. D. Sobirova **-** Axborot xizmati rahbari, *ishchi guruh kotibi*

4. J. Nabiyev **-** Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, *a’zo*

5. S. Eshmatov **-** Yuridik boshqarma bosh yuriskonsulti, *a’zo*

6. S. Xamrayev **-** Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *a’zo*

7. N. Hayitov **-** Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *a’zo*

8. Sh. Burhanova **-** Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, *a’zo*

9. N. Vasikova **-** Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, *a’zo*

10. N. Rasulov **-** Respublika ta’lim markazi filologiya bo‘limi boshlig‘i, *a’zo*

11. G. Xolmurodova **-** Respublika ta’lim markazi Filologiya bo‘limi metodisti, *a’zo*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 20-dekabrdagi
407-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarda barcha turdagi ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishini tanqidiy o‘rganish bo‘yicha
REJA-GRAFIK

T/r	Hudud	Muddati
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2025-yil fevral
2.	Andijon viloyati	2025-yil mart
3.	Buxoro viloyati	2025-yil aprel
4.	Jizzax viloyati	2025-yil sentabr
5.	Qashqadaryo viloyati	2025-yil may
6.	Navoiy viloyati	2025-yil aprel
7.	Namangan viloyati	2025-yil mart
8.	Samarqand viloyati	2025-yil iyun
9.	Sirdaryo viloyati	2025-yil sentabr
10.	Surxondaryo viloyati	2025-yil may
11.	Farg‘ona viloyati	2025-yil mart
12.	Toshkent viloyati	2024-yil dekabr
13.	Xorazm viloyati	2025-yil fevral
14.	Toshkent shahar	2025-yil noyabr

Izoh: ish hajmini inobatga olgan holda mazkur reja-grafikka kelishuv asosida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 16-sentabrdagi 05-11/21009-sonli xati bilan Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari onkogematologiya bo‘limlarida “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda - “Mehrli maktab”) filiallarini tashkil etish taklifi bildirilganligi;

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishchi guruhning 2024-yil 8-noyabrdagi 4-sonli bayoni bilan 2025-yilda Surxondaryo va Xorazm viloyatlari bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari onkogematologiya bo‘limlari hamda Qashqadaryo viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi hududida yangi quriladigan onkogematologiya bo‘limida “Mehrli maktab” filiallarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

“Mehrli maktab”ning yangi tashkil etilayotgan filiallariga yil davomida xarid qilinadigan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarini topshirish-qabul qilish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“Mehrli maktab”ning yangi tashkil etilayotgan filiallariga malakali o‘qituvchi-pedagoglarni saralash bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Mehrli maktab” (N.Alimova)ga:

Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida “Mehrli maktab” filiallarini tashkil etish to‘g‘risida tegishli buyruq qabul qilish;

2025-yilning 10-fevraliga qadar Surxondaryo va Xorazm viloyatlari bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari onkogematologiya bo‘limlarida tashkil etiladigan “Mehrli maktab” filiallarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan zarur bo‘lgan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarga bo‘lgan ehtiyojlarni (texnik topshiriq va narx ko‘rsatilgan holatda) shakllantirish hamda AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi va Ta’lim muassasalarini moddiy ta’minlash bo‘limi bilan kelishgan holda Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limiga taqdim etish;

Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) bilan birgalikda “Mehrli maktab” shtatlar jadvaliga o‘zgartirish kiritish choralarini ko‘rish;

Qashqadaryo viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi hududida yangi quriladigan onkogematologiya bo‘limi binosining foydalanishga topshirilishi muddatiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida “Mehrli maktab” filiallarini tashkil etishni mazkur bandning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida belgilangan talablar asosida amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov)ga:

“Mehrli maktab” tomonidan taqdim etilgan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarning narx qismi, texnik topshiriqlari hamda xarid hujjatlari uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasidan tegishli xulosa olish;

“Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasining xulosasiga asosan homiylik mablag‘larim ajratish yuzasidan “Zamin” xalqaro jamoat fondiga talabnomalar kiritish;

Ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘rnatilgan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova):

jihozlar va tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarni o‘rnatilgan tartibda G‘aznachilik xizmati qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazsin hamda to‘lovlarni amalga oshirsin;

Xo‘jalik bo‘limi (A.Shernazarov) bilan birgalikda xarid qilingan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarni o‘rnatilgan tartibda “Mehrli maktab” filiallariga topshirish qabul-qilish ishlarini amalga oshirsin.

6. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK (A.Tursunov) xarid qilingan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarni shartnoma asosida belgilangan muddatlarda Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga yetkazsin.

7. Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (R.To‘rayev)ga:

a) 2025-yilning 15-yanvariga qadar Axborot xizmati (D.Sobirova) bilan birgalikda Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida faoliyati yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan “Mehrli maktab” filiallariga malakali pedagoglar tanlovi to‘g‘risidagi e’lonni vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirish;

b) 2025-yilning 10-martiga qadar:

“Mehrli maktab” filiallariga ishga kirish istagini bildirgan nomzodlar ro‘yxatini shakllantirish;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi hamda uning filiallari faoliyatini tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 18-apreldagi 101-sonli buyrug‘iga muvofiq nomzodlar to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘rganish;

nomzodlarni saralash maqsadida suhbat jarayonlarini tashkil etish;

suhbat natijasiga ko‘ra, saralab olingan nomzodlar ro‘yxatini tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritish;

suhbat yakuniga ko‘ra, bo‘sh qoladigan ish o‘rinlariga malakali pedagog xodimlarni saralash olish bo‘yicha yil davomida suhbat jarayonlarini tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari “Mehrli maktab” filiallarining faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish hamda “Mehrli maktab” filiallariga ishga kirish istagini bildirgan nomzodlar bilan suhbat jarayonlarini tashkil etishda har tomonlama ko‘maklashsin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik

muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 13-yanvar,
4-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 13-yanvardagi
4-son buyrug‘iga
1-ILOVA

“Mehrli maktab”ning yangi tashkil etilayotgan filiallariga yil davomida xarid qilinadigan jihozlar va tovar-moddiy boyliklarini topshirish qabul-qilish bo‘yicha ishchi guruh TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	Radjabov Sardor Baxtiyorovich	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, ishchi guruh raisi
2	Mannonov Jasur Ibodulla o‘g‘li	Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
3	To‘rayev Ro‘zibek Ochilovich	Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
4	Ayubov Botir Zaxirovich	Ta’lim muassasalarini moddiy ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
5	Shernazarov Abdullajon G‘ulomjonovich	Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i, a’zo
6	M u x a m m a d j o n o v Baxtiyor Axmadjon o‘g‘li	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo
7	Alimova Nigora Israilovna	“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi direktori, a’zo
8	Abdullayeva Shaxlo Xikmatillayevna	“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi bosh buxgalteri, a’zo
9	Jo‘raboyeva Oromxon Xasanovna	“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi xo‘jalik mudiri, ishchi guruh kotibi

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 13-yanvardagi
4-son buyrug‘iga
2-ILOVA

“Mehrli maktab”ning yangi tashkil etilayotgan filiallariga malakali o‘qituvchi-pedagoglarni saralash bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	Radjabov Sardor Baxtiyorivich	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, Ishchi guruh raisi
2	To‘rayev Ro‘zibek Ochilovich	Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, rais o‘rinbosari
3	Xudayberdiyev Ural Jurayevich	Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo
4	Parpiyeva Gulbahor Mirzavaliyevna	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik xizmat ko‘rsatish va ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
5	Axunova Laylo Baxadirovna	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amali markazi bosh mutaxassisi, a’zo
6	Sodiqova Muattar Muratovna	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti, a’zo
7	Djurayeva Zamira Muhammadqulovna	Respublika ta’lim markazi Maxsus pedagogika bo‘limi boshlig‘i, a’zo
8	Alimova Nigora Israilovna	“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi direktori, a’zo
9	Alimov Dilmurod Duyshaboyevich	“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi direktori o‘rinbosari, kotib

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Nodavlat maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jarayonlarini raqamlashtirish haqida

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida” 2021-yil 8-iyuldagi 431-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillari sohasida davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Vazirlik markaziy apparatining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan muvaffaqqiyatli o‘tgan, maxsus guvohnomaga ega xodimlari ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda ro‘yxatga olish uchun mas’ul xodimlar (keyingi o‘rinlarda - mas’ul xodimlar) etib belgilansin.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda:

“E-ma’muriy ish” tizimidan foydalanadigan xodimlarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritish uchun markaziy apparat xodimlari orasidan administrator ajratilsin;

administrator sifatida belgilangan mas’ul xodim to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Ichki ishlar vazirligiga taqdim etsin.

3. “E-ma’muriy ish” tizimidan foydalanadigan xodimlarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritish bo‘yicha administratorga:

mas’ul xodimlarni “E-ma’muriy ish” tizimida ro‘yxatga olish;

mas’ul xodimlar “E-ma’muriy ish” tizimi orqali ERI bilan

ta’minlanishini tashkil etish, ularga pasport nusxasi asosida login va parollar biriktirish;

mas’ul xodimlarning lavozimi o‘zgarganda yoki ular ishdan bo‘shatilganda login va parollarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

mas’ul xodimlar tomonidan axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi, shu jumladan, parollar maxfiyligi ustidan nazorat olib borish;

mas’ul xodimlarga “E-ma’muriy ish” tizimidan foydalanish tartibini muntazam o‘rgatib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mas’ul xodimlar:

ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomani tuzishda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida” 2021-yil 8-iyuldagi 431-son qarori talablariga qat’iy rioya qilsin;

xizmat davomida nodavlat maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar aniqlanganda huquqbuzarga nisbatan “E-ma’muriy ish” tizimi orqali ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirsin hamda tizim orqali tegishli sudlarga yuborsin;

o‘zlariga biriktirilgan planshetlarning but saqlanishi va ushbu planshetdan foydalangan holda tuzilayotgan ma’muriy bayonnoma uchun shaxsan javobgar hisoblansin;

planshetlar yo‘qolgan, uchinchi shaxslarga berilgan, qasddan nobud qilingan, unga o‘rnatilgan dastur va ilovalar qasddan yaroqsiz holga keltirilgan taqdirda, zarar mazkur xodim hisobidan qoplanishini inobatga olsin;

“E-ma’muriy ish” tizimidagi shaxsga doir ma’lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi hamda ushbu ma’lumotlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanilmasligi uchun javobgar etib belgilansin.

5. Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash bo‘limi (S.Maxsudov):

ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jarayonlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirsin;

Yuridik boshqarma (O.Ibroximov) bilan birgalikda ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jarayonlari, tartibi to‘g‘risida mas’ul xodimlarga tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) o‘matilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 13-yanvar,
5-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30- sentabrdagi

PQ-346-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) to‘rt bosqichda quyidagi muddatlarda:

olimpiadaning maktab bosqichi 2025-yil 20-yanvar kuniga qadar;

olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi 2025-yil 15-fevral kuniga qadar;

olimpiadaning hududiy bosqichi 2025-yil 28-fevral kuniga qadar;

tabiiy fanlar yo‘nalishida olimpiadaning Respublika bosqichi 2025-yil mart oyida;

aniq fanlar yo‘nalishida olimpiadaning Respublika bosqichi Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasi nomi bilan 2025-yil may oyida o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari o‘rtasida Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari o‘rtasida Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (T.Shermatov)ga:

yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiadaning tuman (shahar), hududiy hamda Respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish;

me’yoriy hujjatlar talablari asosida olimpiadani to‘g‘ri, adolatli va shaffof tashkil etilishi hamda o‘tkazilishini nazoratga olish;

olimpiadani nazorat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarni kerakli materiallar bilan belgilangan muddatlarda hududlarga xizmat safariga yuborish, shuningdek, hududlarga yuborilayotgan mas’ullarning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari, o‘rnatilgan tartibda ularning asosiy ish joyidan to‘lab berilishini ta’minlash;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

olimpiadaning tuman (shahar), hududiy, Respublika bosqichlari hamda Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasi bo‘lib o‘tadigan kunlarni belgilash vazifalari yuklatilsin.

4. Olimpiadani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar Markazning 2025-yilgi olimpiadalar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilansin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

olimpiadaning maktab, tuman (shahar) hamda hududiy bosqichlarini sifatli, adolatli va shaffof tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlash;

olimpiadaning maktab bosqichi g‘oliblarini maktablar tomonidan maxsus platforma orqali ro‘yxatdan o‘tkazilishini nazorat qilish;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hududiy tashkiliy qo‘mita tarkibini tasdiqlash;

uch kun muddatda olimpiadaning tuman (shahar) bosqichini tashkil etishga oid tegishli chora-tadbirlar dasturi va sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi, auditoriya rahbarlari, nazoratchilar tarkibini shakllantirish;

hakamlar hay'ati tarkibiga hududdagi oliy ta'lim muassasalari, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari, akademik litseylar, davlat va nodavlat (xususiy) umumta'lim maktablaridan tajribali o'qituvchilarni jalb etish;

olimpiadaning tuman (shahar) hamda hududiy bosqichlarini o'tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, barcha tuman (shahar)lardan kelib-ketish uchun qulay bo'lgan joyni belgilash va bu bo'yicha Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markaziga ma'lumot taqdim etish;

olimpiadani ochiq, adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, auditoriyalar va olimpiadalar o'tkaziladigan joylarda kuzatuv kameralarini o'rnatish, har bir auditoriyaga xolis nazoratchi va kuzatuvchilarni jalb etish;

olimpiada ishtirokchilarini olimpiada o'tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish;

olis hududlardan keladigan o'quvchi va o'qituvchilarni yotoqxona bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan to'g'ri, sifatli rasmiylashtirilishini ta'minlash va natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotnomani Fan olimpiadalari markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari va vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko'rsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo'linmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Karimov hamda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori A.Ubbiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 13-yanvar,
7-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 13-yanvardagi
7-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari o‘rtasida Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida 2024-2025-o‘quv yilida o‘tkaziladigan Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Olimpiadada 7-sinf va 8-sinf o‘quvchilari uchun nazorat materiallari alohida taqdim qilinadi hamda g‘oliblar sinflar va fan yo‘nalishlari kesimida alohida aniqlanadi.

3. Al-Xorazmiy nomidagi aniq fanlar olimpiadasida – matematika fanidan, tabiiy fanlar (Science) olimpiadasida – kimyo, biologiya, fizika fanlaridan kompleks tarzda topshiriqlar taqdim qilinadi.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tizimidagi Prezident maktablari, tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar - Abu Ali ibn Sino nomidagi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi va Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar hamda ularning hududlardagi filiallari o‘quvchilari olimpiadaning hududiy bosqichida qatnashishlari mumkin. Agentlik tizimidagi ijod, sport, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari olimpiadaning tuman (shahar) bosqichida ishtirok etadi.

2-bob. Olimpiadani o‘tkazishdan maqsad

5. Olimpiadaning maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar

bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, kichik yoshli iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini namoyon etishiga ko‘maklashish, o‘quvchilarni nufuzli xalqaro fan olimpiadalariga puxta tayyorgarlik ko‘rishlariga shart-sharoitlar yaratish;

ta’lim muassasalari o‘quvchilari orasidan matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha bilimli, ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlash hamda ulardagi ijodiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

mazkur olimpiadaning Respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan o‘quvchilarni kelgusida xalqaro miqyosida tashkil qilinadigan matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlaridan turli musobaqa va olimpiadalarda ishtirok etuvchi respublika terma jamoasiga nomzod sifatida kiritish, shuningdek, nufuzli xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston jamoasining natijadorligini oshirish maqsadida yosh iqtidorlarni zaxirada tayyorlab borish.

3-bob. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish

6. Respublikamizning barcha tuman va shaharlaridagi Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarida olimpiadani tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

7. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi uchun nazorat materiallari Agentlik huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan tuziladi hamda olimpiadaning hududiy tashkiliy qo‘mitasi tomonidan chop etilib, maxfiyligi ta’minlangan holda olimpiada o‘tkaziladigan kuni joylarga yetkaziladi.

8. Tashkiliy qo‘mita:

olimpiada o‘tkaziladigan joyni belgilaydi va tasdiqlaydi;

olimpiada o‘tkaziladigan joy va vaqti bo‘yicha olimpiadaning tuman (shahar)dagi barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va

nodavlat ta’lim tashkilotlarini xabardor qilinishini ta’minlaydi;

hakamlar hay’ati tarkibi, auditoriya rahbarlari ro‘yxatini shakllantiradi;

olimpiada jarayonlarini belgilangan talablar asosida o‘tkazilishini ta’minlaydi;

o‘quvchilar topshiriqlarni yakunlaganidan so‘ng, savollar kitobchasi ishtirokchilarning o‘zida qoldirilishini hamda barcha ishtirokchilarning testga yozgan javoblar varag‘ini rasmga olib maxsus **Telegram guruhiga joylashtirilishi**ni nazorat qiladi;

olimpiada natijalari va hakamlar hay’ati qarori asosida g‘oliblarni keyingi bosqichda ishtirok etishi bo‘yicha tavsiyani Maktabgacha va maktab ta’limi hududiy boshqarmalariga taqdim etadi;

ishtirokchilarning olimpiadalar bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlarini ta’minlashga ta’lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

9. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi 7–8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida har bir tuman va shaharlarda 2024-yil 15-fevral kuniga qadar o‘tkaziladi.

10. Mazkur bosqichda har bir tuman va shaharlardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, nodavlat ta’lim tashkilotlari, Agentlik tizimidagi ijod, sport, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari tomonidan tavsiya qilingan har bir yo‘nalish va har bir sinf bo‘yicha 3 nafargacha o‘quvchilar ishtirok etadi.

11. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi aniq va tabiiy fanlar (Science) yo‘nalishi **bitta turda** tashkil qilinadi. Bunda:

aniq fanlar yo‘nalishida ishtirokchilarga matematika fanidan turli qiyinlik darajasidagi **36 ta test savollari** taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **120 daqiqa** vaqt beriladi. Test topshiriqlarining dastlabki **12 tasi sodda darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **0,9 ball** bilan baholanadi;

keyingi **12 tasi o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **1,5 ball** bilan baholanadi;

qolgan **12 tasi qiyin darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **2,6 ball** bilan baholanadi, **jami 60 ball** (12*0,9+12*1,5+12*2,6=60).

tabiiy fanlar (Science) yo‘nalishida ishtirokchilarga kompleks tarzda kimyo, biologiya, fizika fanlarining har biridan turli qiyinlik darajasidagi **12 tadan, jami 36 ta test savollari** taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **120 daqiqa** vaqt beriladi. Har bir fandagi test topshiriqlarining dastlabki **4 tasi (jami 12 ta) sodda darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **0,9 ball** bilan baholanadi;

keyingi **4 tasi (jami 12 ta) o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **1,5 ball** bilan baholanadi;

qolgan **4 tasi (jami 12 ta) qiyin darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **2,6 ball** bilan baholanadi, **jami 60 ball** (12*0,9+12*1,5+12*2,6=60).

12. Umumiy natijalarga ko‘ra, har bir sinf va yo‘nalish (aniq va tabiiy fanlar) kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar g‘olib (1-, 2-, 3-o‘rinlar) aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

13. Yakuniy natijalarga ko‘ra, g‘olib o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, test topshiriqlaridagi murakkab topshiriqlar bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi.

14. Barcha holat bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda o‘quvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va g‘olib aniqlanadi.

4-bob. Hakamlar hay’ati va apellyatsiya

15. Olimpiadada tashkiliy qo‘mita tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay’ati tuziladi.

16. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so‘ng, auditoriya rahbari tomonidan o‘quvchilarning ishlari yig‘ib olinadi va shifrlangan holda hakamlar hay’atiga topshiriladi.

17. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag‘ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to‘g‘ri deb belgilangan bo‘lsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo‘yiladi.

18. Hakamlar hay’ati tomonidan o‘quvchilarning bajargan

ishlari tekshirilayotgan paytda, tashkiliy qo‘mita tomonidan topshiriqlarning to‘g‘ri javoblari va yechimlari e’lon qilinadi.

19. Test topshiriqlari orasida xato tuzilgan yoki to‘g‘ri javobi mavjud bo‘lmagan savollar aniqlansa, barcha ishtirokchilarga mazkur savol uchun belgilangan ball beriladi.

20. Hakamlar hay’ati barcha o‘quvchilarning ishlarini tekshirib bo‘lgandan so‘ng, ballarni Excel dasturiga kiritadi hamda auditoriyaga yig‘ilgan ishtirokchilarga o‘z ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilarning auditoriyadagi xatti-harakatlari (o‘z ishlarini o‘zgartirib qo‘yishi, javoblar varag‘ini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak) qat’iy nazoratga olinadi.

21. Ishtirokchilar o‘z ishlarini hakamlar hay’ati tomonidan to‘g‘ri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hay’atiga topshiradi.

22. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yig‘ib olingandan so‘ng, ballar o‘zgargan holatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi hamda yakuniy qaror va g‘olib bo‘lgan 3 nafar ishtirokchining javoblar varag‘idan nusxa olinib, barchaga e’lon qilinadi.

23. Agar ishtirokchilarda hakamlar hay’ati tomonidan qo‘yilgan ballarga yoki topshiriq bo‘yicha e’tirozlar bo‘lsa, u holda mazkur ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida qabul qilinadi. Qabul qilingan e’tirozlar hakamlar hay’ati tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Mazkur jarayonda ishtirokchi va uning fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

24. Qayta ko‘rib chiqish jarayonidan so‘ng barcha ishtirokchilarga yakuniy natijalar bo‘yicha izoh beriladi, bu jarayonda natijalar o‘zgarishi mumkin va bunda hakamlar hay’atining qarori qayta tasdiqlanadi.

5-bob. Olimpiadaning hududiy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish

25. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida olimpiadani tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi, hududiy boshqarmalardagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish

sho‘basi mudiri tashkiliy qo‘mita raisi hisoblanadi.

26. Olimpiadaning hududiy bosqichi uchun nazorat materiallari Agentlik huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan tuziladi hamda maxfiyligi ta’minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

27. Olimpiadaning hududiy bosqichi 7- va 8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida har bir hududda **2024-yil 28-fevral** kuniga qadar o‘tkaziladi.

Quyidagilar olimpiadaning hududiy bosqichi ishtirokchilari hisoblanadi:

2024-2025-o‘quv yilida o‘tkazilgan olimpiadaning tuman (shahar) bosqichida tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha sinflar kesimida 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilar;

agentlik tizimidagi Prezident maktablari, tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar hamda ularning hududlardagi filiallari tomonidan tavsiya etilgan har bir sinf va fan yo‘nalishi bo‘yicha 3 nafargacha o‘quvchilar.

28. Olimpiadaning hududiy bosqichi aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi **bitta turda** tashkil qilinadi. Bunda:

aniq fanlar yo‘nalishida ishtirokchilarga matematika fanidan turli qiyinlik darajasidagi **45 ta test savollari** taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **180 daqiqa** vaqt beriladi. Test topshiriqlarining dastlabki **15 tasi sodda darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **0,9 ball** bilan baholanadi;

keyingi **15 tasi o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **1,5 ball** bilan baholanadi;

qolgan **15 tasi qiyin darajadagi ochiq test** (javobi yoziladigan) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **2,6 ball** bilan baholanadi, **jami 75 ball** (15*0,9+15*1,5+15*2,6=75).

tabiiy fanlar (science) yo‘nalishida ishtirokchilarga kompleks tarzda kimyo, biologiya, fizika fanlarining har biridan turli qiyinlik darajasidagi **15 tadan, jami 45 ta test savollari** taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **180 daqiqa** vaqt beriladi. Har bir fandagi test topshiriqlarining dastlabki **5 tasi (jami 15 ta) sodda darajadagi yopiq test** (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **0,9 ball** bilan baholanadi;

keyingi **5 tasi (jami 15 ta) o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq**

test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **1,5 ball** bilan baholanadi;

qolgan **5 tasi (jami 15 ta) qiyin darajadagi ochiq test** (javobi yoziladigan) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob **2,6 ball** bilan baholanadi, **jami 75 ball** (15*0,9+15*1,5+15*2,6=75).

29. Umumiy natijalariga ko‘ra, har bir sinf va yo‘nalish (aniq va tabiiy fanlar) kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar g‘olib (1-, 2-, 3-o‘rinlar) aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

30. Yakuniy natijalarga ko‘ra, g‘olib o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, test topshiriqlaridagi murakkab topshiriqlar bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi.

31. Barcha holat bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda o‘quvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va g‘olib aniqlanadi.

6-bob. Olimpiadaning respublika bosqichini tashkil etish va o‘tkazish

32. Aniq fanlar yo‘nalishida Respublika bosqichiga yo‘llanma olgan o‘quvchilar Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasida ishtirok etadi hamda mazkur olimpiadaga xorijiy davlatlardan o‘quvchilar taklif qilinadi. Mazkur olimpiada xalqaro olimpiadalar talablari asosida tashkil qilinadi.

33. Tabiiy fanlar (Science) yo‘nalishida olimpiadaning hududiy bosqichida sinflar kesimida 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilar olimpiadaning Respublika bosqichida ishtirok etadi hamda Respublika bosqichi ikki turda tashkil qilinadi. Bunda, ishtirokchilarga turli qiyinlik darajasidagi yozma ish topshiriqlari hamda test savollari taqdim qilingan holda, g‘oliblar aniqlanadi.

34. Tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining Respublika bosqichi g‘oliblari diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi hamda 2025-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tadigan Xalqaro yoshlar tabiiy fanlar olimpiadasiga nomzodlar safiga qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 13-yanvardagi
7-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari o‘rtasida Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasini tashkil etish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi
TARKIBI

1.	Sh.Karimov	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari, *tashkiliy qo‘mita raisi*
2.	A.Ubbiyev	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori, *rais o‘rinbosari*
3.	T.Shermatov	-	Fan olimpiadalari markazi direktori, *rais o‘rinbosari*
4.	D.Tuxtayev	-	Fan olimpiadalari markazi bo‘lim boshlig‘i, *a’zo*
5.	M.Islamov	-	Fan olimpiadalari markazi bo‘lim boshlig‘i, *a’zo*
6.	M.Ibragimov	-	Fan olimpiadalari markazi bosh mutaxassisi, *a’zo*
7.	O‘.Boltayev	-	V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti kichik ilmiy xodimi, *a’zo*
8.	X.To‘xtayev	-	Qirol Abdulla Fan va Texnologiyalar Universiteti ilmiy xodimi, kimyo fani o‘qituvchisi, *a’zo*
9.	F.Jo‘rayev	-	Tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan S.H.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyining fizika fani o‘qituvchisi, *a’zo*
10.	X.Egamov	-	Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning biologiya fani o‘qituvchisi, *a’zo*
11.	J.Djumaba-yeva	-	Fan olimpiadalari markazi yetakchi mutaxassisi, *tashkiliy qo‘mita kotibi*
12.	Lavozimiga ko‘ra	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, *a’zo*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son, “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son hamda “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kimyo va fizika fanlari o‘qituvchilari bazasini shakllantirish maqsadida **buyuraman:**

1. Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasining (keyingi o‘rinlarda — olimpiada) hududiy bosqichi 2025-yilning fevral oyi davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar markazlarida tashkil etilsin.

2. Olimpiadaning Respublika bosqichi 2025-yilning mart oyida Toshkent shahrida o‘tkazilsin.

3. Olimpiadaning yakuniy bosqichi natijalariga ko‘ra, 2025-yilning may oyida Fan olimpiadalari markazida tegishli fan yo‘nalishlari (kimyo, biologiya, fizika, matematika, informatika va axborot texnologiyalari) bo‘yicha “Fan kengashlari” tashkil etilsin.

4. Quyidagilar:

Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo’mita (keyingi o‘inlarda - Tashkiliy qo‘mita) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Fan olimpiadalari markazining “Fan kengashlari” to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tashkiliy qo‘mitaga olimpiadani o‘tkazish yo‘riqnomasi va olimpiadani o‘tkazish muddatiga qo‘shimchalar hamda o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar (keyingi o‘rinlarda-hududiy boshqarmalar) maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

olimpiadani tashkil etish jarayonlarini hududiy boshqarmalarning ijtimoiy tarmoqlari orqali keng targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

ishtirokchilarni 2025-yilning 1-fevraliga qadar Markazning rasmiy telegram (https: //t.me/Fan_olimpiadalari_M) sahifasida e’lon qilinadigan havola orqali ro‘yxatdan o‘tishlarini ta’minlash;

olimpiadaning hududiy bosqichini ochiq, adolatli va shaffof o‘tkazilishini ta’minlash;

auditoriyalar va olimpiadalar o‘tkaziladigan joylarda kuzatuv kameralarini o‘rnatish, har bir auditoriyaga xolis nazoratchi va kuzatuvchilarni jalb etish;

hududiy bosqich natijalariga ko‘ra yakuniy bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya qilingan o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlagan holda, respublika bosqichi o‘tkaziladigan manzilga belgilangan muddatlarda kelib-ketishlarini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

7. Markaz (T.Shermatov)ga:

olimpiadani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni Markazning 2025-yilgi olimpiadalar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirish;

olimpiadaning tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlarini hududiy boshqarmalar vakillari bilan birgalikda to‘liq nazoratga olish va yo‘riqnoma talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlash;

olimpiada nazorat materiallarini yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni jalb qilib, sifatli tayyorlash va ularning olimpiada

jarayonlari boshlanguniga qadar ikkinchi yoki uchinchi shaxslarga oshkor etilmagan holda hududlarga yetkazish choralarini ko‘rish;

olimpiadani tashkil qilish bilan bog’liq sarf-xarajatlar asosida o‘z vaqtida belgilangan xaridlarni amalga oshirish;

Respublika bosqichi natijalariga ko’ra sovrinli (1-, 2- va 3-o‘rin) o‘rinlarni egallagan ishtirokchilarga vazirlik diplomi hamda kuchli beshtalikdan joy olgan jami 10 nafar (5 nafar fizika va 5 nafar kimyo fanidan) o‘qituvchilarga vazirlikning esdalik sovg‘alarini berish choralarini ko‘rish;

olimpiadaning Respublika bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘qituvchilarni tarmoq mukofotlariga tavsiya etish;

olimpiadaning yakuniy bosqichi g‘oliblarini fan olimpiadalari uchun nazorat materiallarini tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhlarga jalb etish hamda ularni jamoatchilik asosida Markaz tomonidan tashkil etiladigan yo‘nalishlar bo‘yicha “Fan kengashlari”ga a’zolikka qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali yoritib borilishini ta’minlasin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo‘linmalari, Markaz hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori A.Ubbiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 13-yanvar,
8-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 13-yanvardagi
8-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita

TARKIBI

1.	Sh.Karimov	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari, *tashkiliy qo‘mita raisi*
2.	A.Ubbiyev	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori, *tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
3.	T.Shermatov	-	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi direktori, *tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
4.	D.Tuxtayev	-	Fan olimpiadalari markazi bo‘lim boshlig‘i, *a’zo*
5.	J.Fozilov	-	Fan olimpiadalari markazi bosh mutaxassisi, *a’zo*
6.	M.Ibragimov	-	Fan olimpiadalari markazi bosh mutaxassisi, *a’zo*
7.	X.To‘xtayev	-	Qirol Abdulla Fan va Texnologiyalar Universiteti ilmiy xodimi, Tuval, Saudiya Arabistoni, *a’zo*
8.	F.Jo‘rayev	-	Tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan S.H.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyining fizika fani o‘qituvchisi, *a’zo*
9.	J.Djumabayeva	-	Fan olimpiadalari markazi yetakchi mutaxassisi *tashkiliy qo‘mita kotibi*
10.	Lavozimiga ko‘ra	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, *a’zo*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 13-yanvardagi
8-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Fan olimpiadalari markazining fan kengashlari to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Fan olimpiadalari markazining tegishli fan yo‘nalishlari (kimyo, biologiya, fizika, matematika, informatika) bo‘yicha fan kengashlarining (keyingi o‘rinlarda — “Fan kengashi”) asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. “Fan kengashi” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining buyruqlari, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining buyruqlari va ushbu Nizom asosida faoliyat yuritadi.

3. “Fan kengashi” o‘z faoliyatini qonuniylik, oshkoralik, mustaqillik, erkin fikr, kollegiallik va yakkaboshchilikning uyg‘unligi, jamoa fikrini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiradi.

4. “Fan kengashi” yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydi.

5. “Fan kengashi” jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

6. “Fan kengashi” tarkibi har yili respublikamizdagi Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar orasida kimyo, biologiya, fizika, matematika, informatika fanlaridan o‘tkaziladigan olimpiadalarning yakuniy natijalariga asosan shakllantiriladi hamda Fan olimpiadalari markazi tomonidan tasdiqlanadi.

7. “Fan kengashi” o‘qituvchilarning faoliyati va olimpiadalarni tashkil etishga oid masalalarni hal qiluvchi jamoaviy bo‘g‘in hisoblanadi.

2-bob. “Fan kengashi” ning asosiy maqsad va vazifalari

8. “Fan kengashi” ning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Fan olimpiadalari markazi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan fan o‘qituvchilarining bilim darajasi va pedagogik mahoratini oshirish;

o‘quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan materiallar bazasini yaratish;

“Fan kengashi” a’zolarini nufuzli, shu jumladan xorijiy ta’lim muassasalariga o‘zaro tajriba almashishga jalb etish;

maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog va o‘quvchilarni xalqaro tanlovlarga yo‘naltirish;

o‘qituvchilarning istiqboldagi kasbiy faoliyatlariga motivatsiya berish, o‘zaro tajriba almashishlariga shart-sharoitlar yaratish;

o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadalar ko‘lamini kengaytirish, xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan o‘quvchilarni munosib tayyorlash.

9. “Fan kengashi” ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Fan olimpiadalari markazining boshqaruv ma’muriyati va tuzilmalari takliflarini inobatga olgan holda o‘z ish rejasini shakllantiradi;

ovoz berish yo‘li bilan Fan kengashiga a’zolar tarkibidan rais saylaydi;

baholash tizimini doimiy takomillashtirish hamda mahalliy o‘qituvchilarning akademik salohiyati va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida seminar-treninglar tashkil etadi;

xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan o‘quvchilarni munosib tayyorlash uchun o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etadi;

zarur hollarda xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan o‘quvchilarga onlayn yoki oflayn shaklda o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etadi;

O‘zbekiston terma jamoasi ishtirok etadigan xalqaro va mintaqaviy olimpiadalarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi;

xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish maqsadida chet el xizmat safariga boradi;

respublika miqyosida tashkil etiladigan fan olimpiadalarining hududiy hamda respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini tayyorlashda hamda hakamlar hay’ati a’zosi sifatida qatnashadi;

o‘quvchi yoshlar o‘rtasida turli xil mahalliy ko‘rik tanlovlar va

fan olimpiadalari tashkil qiladi;

o‘quvchilarni xalqaro fan olimpiadalariga saralab olish hamda mahalliy va xalqaro olimpiadalarga tayyorlash hamda o‘quvchilar ishtirokining samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qiladi va ularni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan o‘quv-uslubiy majmualari tayyorlash va nashr etish jarayonlarida ishtirok etadi;

“Fan kengashi” vakolatiga daxldor bo‘lgan boshqa masalalar yuzasidan qaror qabul qiladi.

10. “Fan kengashi” har chorakda kamida bir marta yig‘iladi. Zarur hollarda navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

11. “Fan kengashi” yig‘ilishlariga kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruh rahbari yoki kengash raisi raislik qiladi.

12. “Fan kengashi” raisi o‘z vakolatini vaqtinchalik bajarish imkoniyati bo‘lmagan hollarda (xizmat safari, ta’til va kasallik davrida), uning vazifasini bajarish “Fan kengashi” a’zolaridan biriga vaqtincha yuklatiladi.

3-bob. “Fan kengashi” ning huquq va majburiyatlari

13. “Fan kengashi” o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

olimpiadalarni tashkil etishda takliflar kiritish;

olimpiada jarayonida hakamlar hay’ati va apellyatsiya tarkibida ishtirok etish;

olimpiada natijalari muhokamasida ishtirok etish;

Shu bilan birga “Fan kengashi” o‘z vakolati doirasida boshqa huquqlarga ega.

14. “Fan kengashi” ning majburiyatlari:

Markaz tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajaradi;

belgilangan muddatlarda “Fan kengashi” yig‘ilishlarini onlayn yoki oflayn shakllarda tashkil etadi;

turli xil ko‘rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etishda ishtirok etadi;

olimpiada materiallarini tayyorlaydi, hakamlik qiladi va

apellyatsiya jarayonlarida ishtirok etadi;

o‘quvchilarni xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlaydi;

o‘qituvchilarga o‘quv-seminarlarini tashkil etadi;

Markazda o‘quvchilarga o‘quv mashg‘ulotlar tashkil etadi;

“Fan kengashi” o‘ziga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

4-bob. “Fan kengashi” faoliyatini tashkil etish

15. “Fan kengashi” har yili Fan olimpiadalari markazi tizimida fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan olimpiadada yuqori natijalarni qo‘lga kiritgan 10 nafar o‘qituvchilarni jalb etgan holda tashkil etiladi.

“Fan kengashi” o‘z faoliyatini har o‘quv yili uchun ishlab chiqiladigan rejaga muvofiq amalga oshiradi. Fan kengashi rejasi kengash a’zolari tomonidan ko‘rib chiqilganidan so‘ng kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

16. “Fan kengashi” qarorlari kengash raisi tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi.

17. “Fan kengashi” majlisi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Fan kengashi raisi va Fan kengashi kotibi tomonidan imzolanadi.

18. “Fan kengashi” raisi muntazam ravishda kengash qarorlarining bajarilishi bo‘yicha tekshiruvlar tashkil etadi va kengash a’zolariga ularning natijalari haqida axborot beradi.

19. “Fan kengashi” faoliyati Fan olimpiadalari markazining Metodik tavsiyalar va o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish hamda trener-o‘qituvchilar bilan ishlash bo‘limi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. “Fan kengashi” a’zolari ish faoliyatidan kelib chiqib Davlat mukofotlariga hamda tarmoq mukofotlariga tavsiya etiladi.

21. Ushbu Nizomning amal qilish muddati davomida unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qonunchilik asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 13-yanvardagi
8-son buyrug‘iga
3-ILOVA

O‘qituvchilar o‘rtasida fizika va kimyo fanlaridan Respublika olimpiadasini o‘tkazish YO‘RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnoma Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida Respublika olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Olimpiadada maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan oliy ma’lumotli, fizika va kimyo fani o‘qituvchilari ixtiyoriy ravishda qatnashishi mumkin.

2-bob. Olimpiadaning asosiy maqsadi va vazifalari

3. Olimpiadaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son qarori ijrosini ta’minlash;

fizika va kimyo sohalarida ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar bilimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish;

jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va ularning mehnatini munosib rag‘batlantirish;

o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish.

4. Olimpiadaning vazifalari etib quyidagilar hisoblanadi:

Ta’lim tashkilotlarining fizika va kimyo fani bo‘yicha ilg‘or,

tashabbuskor va ijodkor pedagoglarini aniqlash hamda ulardagi ijodiy qobiliyatlarni, kasbiy mahoratini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

olimpidada muvaffaqiyatli ishtirok etgan pedagog-o‘qituvchilarni kelgusida kasbiy malakasini oshirish, mahorat darslari tashkil etish, sohadagi va fandagi yangiliklarni ommalashtirish;

ularni hududlarda tashkil qilinadigan olimpiadalarda hakamlar hay’ati a’zoligiga jalb etish, nazorat materiallarini tuzish, o‘quv-metodik materiallarni ekspertiza qilish kabi ishlarni amalga oshirish orqali ta’lim muassasalarida fizika va kimyo fanlarining sifatli o‘qitilishini ta’minlashda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

fizika va kimyo fanlarining malakali mutaxassislari bo‘lgan o‘qituvchilar faoliyati va yutuqlarini jamoatchilik orasida keng targ‘ib qilish.

3-bob. Olimpiadani o‘tkazish tartibi

5. Olimpiada davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi. Ishtirok etish istagini bildirgan talabgorlar Fan olimpiadalari markazi tomonidan taqdim etilgan elektron platforma orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

6. Fizika va kimyo fani o‘qituvchilari olimpiadasi tuman (shahar), viloyat va Respublika bosqichlaridan iborat bo‘lib, har yili o‘tkaziladi.

Bunda, olimpiadaning hududiy saralash bosqichini o‘tkazish Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi.

7. Olimpiadaning tuman va viloyat bosqichi hududlarda **2025-yil fevral oyida**, Respublika bosqichi **2025-yilning mart oyida** tashkil qilinadi. Olimpiadani o‘tkazish mas’uliyati hududiy boshqarmalar hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi zimmasiga yuklanadi.

8. Olimpiadaning nazorat materiallari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, yuqori malakali amaliyotchi o‘qituvchilarini jalb etgan va maxfiyligi ta’minlangan holda ishlab chiqiladi hamda olimpiada jarayonlarida qo‘llaniladi.

Hududiy boshqarmalar va mahalliy hokimliklar, homiy tashkilotlar takliflariga muvofiq olimpiadaning Respublika bosqichi hududlarda tashkil etilishi mumkin.

9. Olimpiadaning **hududiy bosqichlari** test sinovlari shaklida tashkil qilinadi.

Test sinovlarida o‘qituvchilarga **40 ta test** topshiriqlari taqdim qilinadi, uni bajarish uchun 2,5 soat (150 daqiqa) vaqt ajratiladi.

Test topshiriqlarining dastlabki 10 tasi sodda darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,6 ball, keyingi 15 tasi o‘rta qiyinlik darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,5 ball, qolgan 15 tasi ochiq (javobi yoziladigan) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 3,1 ball bilan baholanadi, jami 100 ball (10*1,6+15*2,5+15*3,1=100).

Test natijalariga ko‘ra, har bir fan kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 5 nafar g‘olib (1-, 2-, 3-, 4-, 5-o‘rinlar) aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Test natijalariga ko‘ra, g‘olib o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, berilgan test topshiriqlarining yuqori ball beriladigan qismi bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘qituvchi ustunlikka ega bo‘ladi (ya’ni, uchinchi 15 likdan (26-40 savollar) yuqori ball to‘plagan nomzod ustunlikka ega bo‘ladi. Agar u ham teng bo‘lsa, ikkinchi 15 likdan (11-25 savollar) tahlil qilinadi).

Har bir qism bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda o‘qituvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va g‘olib aniqlanadi.

10. Birinchi (hududiy) bosqich natijalariga ko‘ra g‘oliblarga turli nominatsiyalar bo‘yicha diplom topshiriladi va viloyat hokimligi hamda hududiy boshqarmalar tashabbusi bilan esdalik sovg‘alari ham berilishi mumkin.

11. Kasalligi yoki boshqa sababga ko‘ra respublika bosqichida ishtirok eta olmaydigan o‘qituvchilar o‘rniga olimpiadaning hududiy bosqich reytingiga ko‘ra navbatdagi nomzod ishtirok etishi mumkin.

12. Hududlardagi ta’lim muassasalari hamda olimpiadada

ishtirok etish istagini bildirgan o‘qituvchilar sonidan kelib chiqqan holda fanlar kesimida olimpiadalarni alohida kunlarda tashkil etilishi mumkin.

13. Olimpiadaning Respublika bosqichi 2 turda (yozma ish va laboratoriya) tashkil qilinadi.

Birinchi turda ishtirokchilarga turli qiyinlik darajasidagi 5 ta yozma ish topshiriqlari *(8, 8, 10, 10 va 14 balli topshiriqlar, jami 50 ball bilan baholanadi)*ni bajarish uchun 180 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ikkinchi turda ishtirokchilarga laboratoriya ishini bajarish uchun topshiriq beriladi. Laboratoriya ishi 30 ball bilan baholanadi, bajarish uchun 2 soat (120 daqiqa) vaqt ajratiladi.

Ishtirokchilar ikki tur bo‘yicha jami 80 ball bilan baholanadi.

14. Tashkiliy qo‘mita tomonidan olimpiada jarayonlarining shaffof, adolatli va xolisona o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida jarayonlarni onlayn kuzatib borish uchun shart-sharoitlar yaratiladi hamda ishtirokchi o‘qituvchilarning bajargan ishlari, nazorat materiallari va javoblar ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib boriladi.

15. Hududiy bosqich g‘oliblari va ularning natijalari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining https://www.uzedu.uz/ saytida, Telegram https://t.me/uzedu kanalida e’lon qilinadi.

16. Birinchi bosqichda hududiy boshqarmalar, ikkinchi bosqichda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qarashli Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan Tashkiliy qo‘mita shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

17. Tashkiliy qo‘mita olimpiadani tashkil qilish va o‘tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta’minlaydi, hakamlar hay’ati tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

18. Olimpidaning birinchi va ikkinchi bosqichida ishtirokchilar bajargan ishlariga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘yilgan ballarga izoh yoki tushuntirishlar berilishi mumkin.

4-bob. Hakamlar hay’ati

19. Hakamlar hay’ati tarkibiga oliy o‘quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlarining malakali mutaxassislari, tadqiqotchi, yetakchi amaliyotchi, tajribali professor-o‘qituvchilari hamda

yuqori natijalarga erishgan pedagog o‘qituvchilar kiritiladi.

20. Olimpiadada ishtirok etayotgan pedagoglar hakamlar hay’ati tarkibiga kiritilmaydi.

21. Olimpiada boshlangunga qadar Tashkiliy qo‘mita tomonidan taqdim etilgan topshiriqlar va test savollari Hakamlar hay’ati tomonidan ekspertiza *(mazmunan va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi)* qilinadi. Ushbu ekspertiza jarayonida apellatsiya komissiyasi a’zosi ham qatnashadi.

22. Hakamlar hay’atiga o‘qituvchilarning yozma ish va test javoblari varaqalari shifrlangan holda taqdim etiladi.

23. Ishtirokchilarning test javoblari varag‘ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to‘g‘ri deb belgilangan yoki bo‘yalgan holatda bo‘lsa, hech qaysi javob inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo‘yiladi.

24. Hakamlar hay’ati biror bir yozma yoki test topshirig‘ida xatolik bor deb hisoblasa, dalolatnoma asosida shu yozma ish yoki test topshirig‘i bo‘yicha barcha ishtirokchilarga tegishli ballar qo‘shib berilishi yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

25. Hakamlar hay’ati tomonidan o‘qituvchilarning bajargan ishlari tekshirilayotgan paytda, tashkiliy qo‘mita tomonidan topshiriqlarning to‘g‘ri javoblari va yechimlari e’lon qilinadi.

26. Hakamlar hay’ati barcha o‘qituvchilarning ishlarini tekshirib bo‘lgandan so‘ng, ballarni elektron qaydnomalar (Excel) asosida rasmiylashtiriladi hamda ishtirokchilarga o‘z ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi.

27. Ishtirokchilar o‘z ishlarini hakamlar hay’ati tomonidan to‘g‘ri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hay’atiga topshiradilar.

28. Ishtirokchilarning auditoriyadagi harakatlari *(o‘z ishlarini o‘zgartirib qo‘yishi, javoblar varag‘ini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak)* qat’iy nazoratga olinadi.

29. Agar ishtirokchilar hakamlar hay’ati baholagan ishlariga e’tiroz bildirsalar, ularga hakamlar hay’ati tomonidan shu savol bo‘yicha tushuncha berilishi kerak.

30. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yig‘ib olingandan so‘ng, ballar o‘zgargan holatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi va barchaga e’lon qilinadi.

31. Hakamlar hay’ati tomonidan bajarilgan ishlar baholash

mezoniga muvofiq adolatli baholanadi, o‘qituvchilarning egallagan ballari umumlashtiriladi va yakuniy dalolatnoma tasdiqlangan holda tashkiliy qo‘mitaga topshiriladi.

4-bob. Apellyatsiya komissiyasi

32. Apellyatsiya komissiyasi har bir fan kesimida bir yoki uch kishidan iborat bo‘lishi mumkin.

33. Ishtirokchi topshiriqlarni baholash yuzasidan hakamlar hay’ati tomonidan berilgan tushuntirishlarga qoniqmagan taqdirda, shu xonadan chiqmay turib apellyatsiya komissiyasiga ariza berishi lozim.

34. Apellyatsiya komissiyasi arizada aynan ko‘rsatib o‘tilgan topshiriq(lar)ni qayta ko‘rib chiqadi va o‘zining xulosasini beradi.

35. Apellyatsiya komissiyasi xulosasi yuzasidan ishtirokchiga tushuntirishlar berishga majbur emas.

5-bob. Olimpiada g‘oliblarini taqdirlash

36. Respublika bosqichi natijalariga ko‘ra sovrinli (1-,2-,3-o‘rin) o‘rinlarni egallagan ishtirokchilarga Vazirlikning diplomi hamda kuchli beshtalikdan joy olgan jami 10 nafar (5 nafar fizika va 5 nafar kimyo fanidan) o‘qituvchilar vazirlikning estalik sovg‘asi bilan taqdirlanadi.

37. Olimpiadada yuqori natija ko‘rsatgan 20 nafar (10 nafar fizika va 10 nafar kimyo fanidan) o‘qituvchi-mutaxassislar Fan olimpiadalari markazining “Fan kengashi” a’zoligi sertifikatiga ega bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzodlarni saralashning I bosqichi g‘oliblari uchun kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda saralashning II bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzod o‘quvchilar uchun kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda saralashning II bosqichini o‘tkazish reja-grafigi 1-ilovaga muvofiq;

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzodlarni saralashning II bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma 3-ilovaga muvofiq;

Xalqaro geografiya olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xalqaro iqtisod va geografiya olimpiadalariga saralashning hududiy bosqichi hamda Yevropa qizlar matematika olimpiadasiga saralashning respublika bosqichi joriy yilning fevral oyida o‘tkazilsin.

3. 2025-yil mart oyida 10-Kavkaz matematika olimpiadasi (Adigeya Respublikasi), 2025-yil aprel oyida 59-Xalqaro Mendeleyev kimyo olimpiadasi (Braziliya) hamda 14-Yevropa qizlar matematika olimpiadalari (Kosovo) o‘tkazilishi inobatga

olinsin.

Bunda:

10-Kavkaz matematika olimpiadasida matematika fanidan saralashning II bosqichida yuqori natija qayd etgan o‘quvchilar;

59-Xalqaro Mendeleyev kimyo olimpiadasida kimyo fanidan saralashning II bosqichida yuqori natija qayd etgan o‘quvchilar Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoa tarkibiga kiritiladi.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) (A.Ubbiyev)ga:

Agentik tizimidagi maktablarning 5-11-sinf o‘quvchi qizlari o‘rtasida matematika fani olimpiadasining Agentlik bosqichini (keyingi o‘rinlarda - qizlar olimpiadasi) 2025-yilning 8-fevral kuni Buxoro viloyatidagi Qorako‘l tuman ixtisoslashtirilgan maktabida yuqori saviyada o‘tkazish;

qizlar olimpiadasini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni Agentlikning Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Agentlik huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (T.Shermatov)ga:

matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika, iqtisod, geografiya fanlaridan kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari hamda saralash olimpiadalarini belgilangan muddatlarda o‘tkazish;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlarida ishtirok etuvchi o‘quvchilar hamda trener o‘qituvchilar ro‘yxatini shakllantirish;

Agentlik tizimidagi maktablarning 9-11-sinf o‘quvchi qizlari o‘rtasida matematika fanidan o‘tkaziladigan olimpiadada yuqori natija qayd etgan 10 nafar hamda 2024-yil o‘tkazilgan 2-Al-Xorazmiy nomidagi yosh matematiklar xalqaro olimpiadasida sovrindor bo‘lgan 6 nafar o‘quvchi qizlarni kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlariga jalb qilish;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari yakunida o‘quvchi qizlar o‘rtasida saralash olimpiadasi o‘tkazish;

saralash olimpiadasida yuqori natija qayd etgan o‘quvchi qizlarni belgilangan kvota doirasida terma jamoa tarkibiga kiritish;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil qilish, saralash olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish hamda 2025-yilgi olimpiadalar o‘tkazish bo‘yicha

xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtirish;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari va saralash olimpiadasi ishtirokchilarini Fan olimpiadalar markazi yotoqxonasiga joylashtirish;

yotoqxonada sanitariya-gigiyena qoidalariga qat’iy amal qilish, yong‘in va texnika xavfsizligini ta’minlash;

xalqaro fan olimpiadalari talablari asosida yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda saralash olimpiadasi uchun nazorat materiallarini maxfiyligini ta’minlagan holda ishlab chiqish, saralash olimpiadasini adolatli va shaffof o‘tkazish;

saralash olimpiadasini o‘tkazish uchun hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlariga tajribali o‘qituvchilar, xalqaro olimpiada sovrindorlari bo‘lgan trenerlarni jalb qilish;

o‘rnatilgan tartibda trener o‘qituvchilar bilan shartnomalar tuzish hamda tuzilgan shartnomalarga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga:

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari va saralash olimpiadasi ishtirokchilarini institut yotoqxonasiga joylashtirish;

yotoqxonada sanitariya-gigiyena qoidalariga qat’iy amal qilish, yong‘in va texnika xavfsizligini ta’minlash;

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari va saralash olimpiadasi ishtirokchilarini belgilangan reja-grafik asosida institut yotoqxonasi binosidan Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab hamda Fan olimpiadalari markaziga borib-kelishlari uchun avtotransport ajratish vazifalari yuklatilsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari hamda saralash olimpiadasi ishtirokchilarini jarayonlarda ishtirokini ta’minlash uchun bir nafardan jamoa rahbarini biriktirib, yo‘l harakati xavfsizligi choralarini ko‘rgan holda Toshkent shahriga belgilangan muddatlarda kelib-ketishlarini ta’minlash;

jamoa rahbarlarining xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari

xodimning asosiy ish joyidan to‘lanishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) kuchaytirilgan o‘quv-mashg‘ulotlari va saralash olimpiadasi jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko‘rsin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov hamda Agentlik direktori A.Ubbiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 20-yanvar,
17-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 20-yanvardagi
17-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzod o‘quvchilar uchun kuchaytirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda saralashning II bosqichini o‘tkazish
REJA-GRAFIGI

№	Fan	Yotoqxona joyi	O‘quv mashg‘ulotlari	Saralashning II bosqichi	Ketish vaqti
1.	Fizika	Fan olimpiadalari markazi	20-31-yanvar Fan olimpiadalari markazi	25-yanvar, 1-fevral Fan olimpiadalari markazi	**3-fevral**
2.	Kimyo	A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti	20-29-yanvar Ibn Sino maktabi	30-yanvar, 1-fevral Ibn Sino maktabi	**3-fevral**
3.	Matematika	Fan olimpiadalari markazi	20-31-yanvar Fan olimpiadalari markazi	25-yanvar, 1-fevral Fan olimpiadalari markazi	**3-fevral**
4.	Biologiya	A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti	10-21-fevral Ibn Sino maktabi	15, 22-fevral Ibn Sino maktabi	**24-fevral**
5.	Informatika	Fan olimpiadalari markazi	10-21-fevral Fan olimpiadalari markazi	15, 22-fevral Fan olimpiadalari markazi	**24-fevral**

Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining
2025-yil 20-yanvardagi
17-son buyrug'iga
2-ILOVA

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzodlarni saralashning II bosqichini o'tkazish bo'yicha YO'RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma umumiy o'rta ta'lim (davlat va nodavlat) maktablarining 9-11-sinf va akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining 1-2-bosqich o'quvchilari o'rtasida xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzodlarni saralashning ikkinchi bosqichini (keyingi o'rinlarda – saralash olimpiadasi) o'tkazish jarayonida qo'llaniladi.

Saralash olimpiadasi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi.

2. Saralash olimpiadasini tashkil etish va o'tkazishdan asosiy maqsad va vazifa:

o'quvchilar orasidan matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika fanlari bo'yicha bilimli, ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlash, ularni ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, qo'llab- quvvatlash va rag'batlantirishdan iborat.

2-bob. Saralash olimpiadasini o'tkazish tartibi

3. Kimyo, fizika, matematika, biologiya, informatika fanlaridan saralash olimpiadasi ikkita turda belgilangan reja grafik asosida o'tkaziladi.

4. Saralash olimpiadasida birinchi guruh fanlaridan xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoaga nomzodlarni saralashning I bosqichida yuqori o'rinlarni egallagan (har bir fan bo'yicha dastlabki 25 nafar ishtirokchilar) hamda 2024-2025-o'quv yilida bo'lib o'tgan mintaqaviy xalqaro olimpiadalarda g'olib bo'lgan o'quvchilar ishtirok etadi.

5. Xolislik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida saralash olimpiadasi o‘tadigan auditoriya videokuzatuv jihozlari bilan ta’minlanadi.

6. Saralash olimpiadasi ishtirokchilariga xalqaro fan olimpiadalari standartlari (talablari) darajasidagi nazorat materiallari beriladi.

7. Saralash olimpiadasiga kechikib kelgan ishtirokchilar auditoriyaga kiritilmaydi. Saralash olimpiadasi ishtirokchisi olimpiada jarayonlari vaqtida auditoriya nazoratchisi yoki rahbari hamrohligida tashqariga chiqib kelishi mumkin.

8. Saralash olimpiadasi jarayonida belgilangan tartib va qoidalarga amal qilmagan yoki ovoz uzatish va eshitish moslamalari bilan auditoriyaga kirgan o‘quvchilar auditoriya rahbari va nazoratchilar tomonidan tuzilgan dalolatnoma asosida saralash olimpiadasidan chetlashtiriladi;

bu haqda tegishli dalolatnoma tuzilib, uni auditoriya rahbari va nazoratchilar imzolaydi. Ushbu dalolatnomalar hakamlar hay’ati raisiga topshiriladi;

9. Ishtirokchilar saralash olimpiadasi davomida bir-birlari bilan gaplashishi, ruxsatsiz auditoriyada turib yurishi, javoblarni bir-biriga ko‘rsatishi, kitoblardan, uyali telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishi, boshqalarga ko‘maklashishi taqiqlanadi.

10. Nazorat materiallari quyidagi shaklda beriladi:

Fizika fanidan – saralash olimpiadasi 2 kun davomida o‘tkaziladi. Birinchi kun ishtirokchilarga yozma ish uchun 3 ta topshiriq berilib, barcha topshiriqlar 10 balldan, umumiy 30 ball bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarish uchun 4 soat vaqt beriladi. Ikkinchi kun esa ishtirokchilarga amaliy ish topshirig‘i beriladi, 20 ball bilan baholanadi, amaliy ish topshirig‘ini bajarish uchun 3 soat vaqt ajratiladi.

Matematika fanidan – saralash olimpiadasida ishtirokchilarga 2 kun davomida yozma ish uchun 3 tadan masala berilib, har bir masala 7 ball bilan hamda barcha masalalar umumiy 42 ball bilan baholanadi. Masalalarni yechish uchun ishtirokchilarga har kuni 4,5 soatdan vaqt beriladi;

Kimyo fanidan – saralash olimpiadasi 2 kun davomida o‘tkaziladi. Birinchi kun ishtirokchilarga yozma ish uchun turli

qiyinlik darajasidagi 5 ta topshiriq berilib (topshiriqlarning qanday baholanishi hakamlar hay'ati tomonidan belgilanadi), barcha topshiriqlar umumiy 50 ball bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarish uchun 4 soat vaqt beriladi. Ikkinchi kun esa ishtirokchilarga turli qiyinlik darajasidagi 3 ta topshiriq va amaliy ish topshirig'ining nazariy qismi beriladi. Amaliy ish topshiriqlari amaliyotda bajarilgan tajriba natijalarining tahlili, hisob-kitoblar, sifat analizi, grafiklar chizish va mavzuga doir nazariy savollarni o'z ichiga oladi. 3 ta topshiriq umumiy 30 ball va amaliy ish 20 ball bilan baholanadi, topshiriqlarni bajarish uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

Biologiya fanidan – saralash olimpiadasi 2 kun davomida o'tkaziladi. Birinchi kun ishtirokchilarga yozma ish uchun 5 ta topshiriq beriladi (topshiriqlarning qanday baholanishi hakamlar hay'ati tomonidan belgilanadi), barcha topshiriqlar umumiy 50 ball bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarish uchun 4 soat vaqt beriladi. Ikkinchi kun esa ishtirokchilarga nazariy test topshirig'i beriladi, test topshiriqlari umumiy 50 ball bilan baholanadi, 3 soat vaqt ajratiladi;

Informatika fanidan saralash olimpiadasi 2 kun davomida onlayn tizimda tashkil qilinadi hamda ishtirokchilarga har kuni turli qiyinlik darajasidagi 5 tadan masala berilib, topshiriqlarning qanday baholanishi hakamlar hay'ati tomonidan belgilanadi. To'liq ishlangan va axborot tizimida avtomatik tarzda qabul qilingan barcha masalalar umumiy 100 ball bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarish uchun ishtirokchilarga har kuni 5 soatdan vaqt beriladi. Bir xil ball to'plagan ishtirokchilarning reytingi jarima vaqtini hisobga olish orqali onlayn tizimda avtomatik tarzda aniqlanadi. Ishtirokchilar masalalarni bajarish uchun dastur kodlarini faqat C^{++} dasturlash tilida yozishlari talab etiladi.

11. Matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlaridan yozma ishlar auditoriya nazoratchilari tomonidan yig'ib olinadi. Ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlar hakamlar hay'ati tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezoni asosida baholanadi va natijalar shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

12. Ishtirokchilar orasidan to'plagan ballar ketma-ketligida har bir fan bo'yicha yuqori natijalarni qayd etgan:

biologiya fanidan – 12 nafar;

kimyo fanidan – 12 nafar;

informatika fanidan – 12 nafar;

fizika fanidan – 15 nafar;

matematika fanidan – 18 nafar o‘quvchilar saralashning uchinchi bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

13. Saralash olimpiadasi natijalari bo‘yicha jami ballar teng bo‘lgan taqdirda o‘quvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha topshiriqlar beriladi va g‘olib aniqlanadi.

14. Informatika fanidan 12-o‘rindagi bir necha ishtirokchilarning to‘plagan ballari teng bo‘lib qolgan taqdirda, hakamlar hay’ati tomonidan shu o‘quvchilarning masala ishlashga sarflagan jarima vaqtlari tizimda tekshiriladi hamda kam jarima olgan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi.

3-bob. Hakamlar hay’ati

15. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan saralash olimpiadasi ishtirokchilarining ishlarini baholash uchun matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika fanlaridan hakamlar hay’ati tarkibi shakllantiriladi.

16. Hakamlar hay’ati a’zolarining vazifalari:

saralash olimpiadasi jarayonida beriladigan nazorat materiallarini ekspertizadan o‘tkazadi;

saralash olimpiadasi ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni baholash mezonlari asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va g‘oliblarni aniqlaydi;

natijalarni saralash olimpiadasi o‘tkazilgan kuni e’lon qiladi;

o‘tkazilgan saralash olimpiadasi natijalari bo‘yicha qaror qabul qiladi va uni Markazga taqdim qiladi;

saralash olimpiadasi yakunlari yuzasidan qaror matnlarini tayyorlaydi va rasmiylashtiradi.

17. Hakamlar hay’ati tarkibiga bilimli, tajribali bo‘lgan pedagog va olimlar, xalqaro olimpiadalar sovrindorlari bo‘lgan trenerlar tavsiya qilinadi.

18. Hakamlar hay’ati a’zolari orasidan ochiq tarzda ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan hay’at raisi saylanadi.

4-bob. Auditoriya rahbarlari

19. Markaz tomonidan fan o‘qituvchilari orasidan xonalarga

auditoriya rahbari va nazoratchilari tayinlanadi.

20. Fan o‘qituvchisi o‘z mutaxassislik yo‘nalishida olimpiada o‘tkazilayotgan auditoriyaga rahbar yoki nazoratchi etib tayinlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

21. Auditoriya rahbarlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

ishtirokchilarga olimpiadaning tartib-qoidalari to‘g‘risida qisqacha tushuntiradi;

olimpiada boshlanishi va tugash vaqtini e’lon qiladi hamda olimpiada jarayonini nazorat qiladi;

fan olimpiadasi jarayonida o‘rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilmagan o‘quvchilarni olimpiadadan dalolatnoma tuzib chetlashtiradi;

ishlarni hakamlar hay’ati tomonidan tekshirishga berish uchun Markaz vakillariga topshiradi.

5-bob. Apellyatsiya jarayoni

22. Dastlabki natijalar e’lon qilingandan so‘ng, o‘quvchilar o‘z ishlari qanday baholanganligini ko‘rishlari mumkin, agar noaniqlik, tushunmovchilik holatlari bo‘lsa, ularga mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berilishi kerak.

23. Apellyatsiyaga saralash olimpiadasi ishtirokchilarining faqatgina o‘zlari tomonidan bajarilgan ishlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha natija e’lon qilingandan so‘ng shu kunning o‘zida arizalar qabul qilinadi.

24. Hakamlar hay’ati tomonidan baholangan ishtirokchilarning natijalari baholash mezonlariga mos kelmasligi yoki xatoga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan taqdirda hakamlar hay’ati o‘z qarorini bekor qilish va ularga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

6-bob. Yakuniy qoidalar

25. Saralash olimpiadasini o‘tkazishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatoliklar to‘g‘risidagi shikoyatlar, olimpiada tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalar Markaz tomonidan ko‘rib chiqiladi.

26. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining
2025-yil 20-yanvardagi
17-son buyrug'iga
3-ILOVA

Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini o'tkazish bo'yicha YO'RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma umumiy o'rta ta'lim (davlat va nodavlat) maktablarining 9-11-sinf va akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining 1-2-bosqich o'quvchilari o'rtasida Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini (keyingi o'rinlarda - olimpiada) tashkil etish va o'tkazish jarayonida qo'llaniladi.

2. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazishdan asosiy maqsad va vazifa:

o'quvchilar orasidan iqtisod fani bo'yicha bilimli, ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlash;

iqtisod faniga qiziquvchi o'quvchilardagi ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdan iborat.

2-bob. Olimpiadani tashkil qilish

3. Olimpiadani o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keying o'rinlarda - hududiy boshqarmalar) tomonidan Tashkiliy qo'mita shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo'mita olimpiadani tashkil qilish va o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydi, hakamlar hay'ati tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

4. Hududiy boshqarmalar tomonidan ishtirokchilarning ro'yxati olimpiada o'tkaziladigan kundan 10 kun oldin elektron tarzda shakllantiriladi.

5. Olimpiadada har bir tuman (shahar)dan umumiy o'rta ta'lim (davlat va nodavlat) hamda kasb-hunar maktablari o'quvchilari orasidan saralangan 3 nafargacha o'quvchilar;

hududdagi har bir akademik litseylardan 3 nafargacha o‘quvchilar;

har bir hudud bo‘yicha Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan, sport va ijod maktab o‘quvchilari orasidan saralangan 5 nafargacha o‘quvchilari;

Prezident maktablari hamda tayanch ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari va ularning hududlardagi filiallarining har biridan 5 nafargacha o‘quvchilar;

2024-yil bo‘lib o‘tgan xalqaro iqtisod olimpiadasida ishtirok etgan o‘quvchilar qatnashishi mumkin

6. Olimpiadada topshiriqlar ishtirokchilarga ingliz tilida beriladi va g‘oliblar sinflarga ajratilmagan holda aniqlanadi.

7. Olimpiada hududlarda 2025-yilning fevral oyining uchinchi dekadasida o‘tkaziladi. Barcha hududlarda olimpiada jarayonlari bir vaqtda soat 14:00 da boshlanadi.

8. Olimpiada test sinovi shaklida o‘tkazilib, ishtirokchilarga 30 ta test topshiriqlari taqdim qilinadi. Test topshiriqlarini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt ajratiladi.

Olimpiada topshiriqlari qatnashchilar sinfidan qat’iy nazar, barcha ishtirokchilar uchun bir xilda bo‘ladi.

9. Test topshiriqlarining dastlabki 10 tasi sodda darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadigan) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 0,9 ball bilan baholanadi;

keyingi 10 tasi o‘rta qiyinlik darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadigan) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,5 ball bilan baholanadi;

qolgan 10 tasi ochiq (javobi yoziladigan) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,6 ball bilan baholanadi, jami 50 ball (10*0,9+10*1,5+10*2,6=50).

10. Test topshiriqlari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan tayyorlanadi, chop etiladi hamda maxfiyligi ta’minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

11. Joylarga yetkazilgan test topshiriqlarining maxfiyligini ta’minlash, jarayonlarning shaffof, adolatli va barcha xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda tashkil etish, olimpiada jarayonlarini (ishtirokchilar test topshiriqlarini bajarayotganda, hakamlar hay’ati ishlarni tekshirayotgan vaqtda) ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram,

Facebook, Instagram) jonli tarzda namoyish qilinishiga hududiy boshqarmalarning boshliqlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

12. Test natijalariga ko‘ra, sovrinli (1-, 2-, 3-o‘rin) o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, berilgan test topshiriqlarining yuqori ball beriladigan qismi bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi (21-30-savollar). Agar u ham teng bo‘lsa, ikkinchi o‘nlik (11-20-savollar) tahlil qilinadi. Uchala qism bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda g‘oliblikka da'vogarlarga 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) taqdim qilinadi.

3-bob. Hakamlar hay'ati va apellyatsiya

13. Olimpiadada tashkiliy qo‘mita tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay'ati tuziladi.

14. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so‘ng, auditoriya rahbari tomonidan o‘quvchilarning ishlari yig‘ib olinadi, skaner yoki rasmga olinib oldindan tashkil etilgan telegram kanalda e'lon qilinadi va shifrlangan holda hakamlar hay'atiga topshiriladi.

15. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag‘ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to‘g‘ri deb belgilangan bo‘lsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo‘yiladi.

16. Hakamlar hay'ati tomonidan o‘quvchilarning bajargan ishlari tekshirilayotgan paytda, tashkiliy qo‘mita tomonidan topshiriqlarning to‘g‘ri javoblari va yechimlari telegram kanalda e'lon qilinadi.

17. Test topshiriqlari orasida xato tuzilgan yoki to‘g‘ri javobi mavjud bo‘lmagan savollar aniqlansa, barcha ishtirokchilarga mazkur savol uchun belgilangan ball beriladi.

18. Hakamlar hay'ati barcha o‘quvchilarning ishlarini tekshirib bo‘lgandan so‘ng, ballarni **Excel dasturig**a kiritadi hamda auditoriyaga yig‘ilgan ishtirokchilarga o‘z ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilarning auditoriyadagi xatti-harakatlari (o‘z ishlarini o‘zgartirib qo‘yishi, javoblar varag‘ini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak) qat'iy nazoratga olinadi.

19. Ishtirokchilar o‘z ishlarini hakamlar hay'ati tomonidan

to‘g‘ri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hay’atiga topshiradi.

20. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yig‘ib olingandan so‘ng, ballar o‘zgargan holatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi hamda yakuniy qaror barchaga e’lon qilinadi.

21. Agar ishtirokchilarda hakamlar hay’ati tomonidan qo‘yilgan ballarga yoki topshiriq bo‘yicha e’tirozlar bo‘lsa, u holda mazkur ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida qabul qilinadi. Qabul qilingan e’tirozlar hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Mazkur jarayonda ishtirokchi va uning fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

22. Qayta ko‘rib chiqish jarayonidan so‘ng barcha ishtirokchilarga yakuniy natijalar bo‘yicha izoh beriladi, bu jarayonda natijalar o‘zgarishi mumkin va bunda hakamlar hay’atining qarori qayta tasdiqlanadi.

23. Olimpiadada 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallab, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning Respublika bosqichida ishtirok etadi.

Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 20-yanvardagi
17-son buyrug‘iga
4-ILOVA

Xalqaro geografiya olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini o‘tkazish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo‘riqnoma umumiy o‘rta ta’lim (davlat va nodavlat) maktablarining 9-11-sinf va akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining 1-2-bosqich o‘quvchilari o‘rtasida Xalqaro geografiya olimpiadasiga saralashning hududiy bosqichini (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) tashkil etish va o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladi.

2. Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishdan asosiy maqsad va vazifa:

o‘quvchilar orasidan geografiya fani bo‘yicha bilimli, ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlash;

geografiya faniga qiziquvchi o‘quvchilardagi ijodiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan iborat.

2-bob. Olimpiadani tashkil qilish

3. Olimpiada o‘tkazish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarmalar) tomonidan Tashkiliy qo‘mita shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

Tashkiliy qo‘mita olimpiadani tashkil qilish va o‘tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta’minlaydi, hakamlar hay’ati tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

4. Hududiy boshqarmalar tomonidan ishtirokchilarning ro‘yxati olimpiadaning hududiy bosqichi o‘tkaziladigan kundan 10 kun oldin elektron tarzda shakllantiriladi.

5. Olimpiadada 2024-2025-o‘quv yilida geografiya fanidan

o‘tkazilgan asosiy olimpiadaning III (hududiy) bosqichida 9-11-sinf o‘quvchilari orasidan sinflar kesimida reytingi bo‘yicha dastlabki beshtalikka kirgan, geografiya fanidan chuqur bilimga ega va ingliz tilini biladigan o‘quvchilar;

har bir hudud bo‘yicha Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan, sport va ijod maktab o‘quvchilari orasidan saralangan 5 nafargacha o‘quvchilar;

Prezident maktablari hamda tayanch ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari va ularning hududlardagi filiallarining har biridan 5 nafargacha o‘quvchilar;

2024-yil bo‘lib o‘tgan xalqaro geografiya olimpiadasida ishtirok etgan o‘quvchilar qatnashishi mumkin.

6. Topshiriqlar ishtirokchilarga ingliz tilida beriladi va g‘oliblar sinflarga ajratilmagan holda aniqlanadi.

7. Olimpiada 2025-yil mart oyining birinchi dekadasida o‘tkaziladi. Barcha hududlarda olimpiada jarayonlari bir vaqtda soat 14:00 da boshlanadi.

8. Olimpiada test sinovi shaklida o‘tkazilib, ishtirokchilarga 35 ta test topshiriqlari taqdim qilinadi. Test topshiriqlarini bajarish uchun 120 daqiqa vaqt ajratiladi.

Olimpiada topshiriqlari qatnashchilar sinfidan qat’iy nazar, barcha ishtirokchilar uchun bir xilda bo‘ladi.

9. Test topshiriqlarining dastlabki 10 tasi sodda darajasidagi yopiq test bo‘lib (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadigan), har bir to‘g‘ri javob 0,6 ball bilan baholanadi;

keyingi 10 tasi o‘rta qiyinlik darajasidagi multimediya yopiq test bo‘lib (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadigan), har bir to‘g‘ri javob 1,4 ball bilan baholanadi;

qolgan 15 tasi ochiq test bo‘lib (javobi yoziladigan), ularning dastlabki 5 tasi 1 ball, keyingi 5 tasi 2,1 ball, oxirgi 5 tasi 2,9 ball bilan baholanadi, jami 50 ball (10*0,6+10*1,4+5*1+5*2,1+5*2,9 =50).

10. Test topshiriqlari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan tayyorlanadi, chop etiladi hamda maxfiyligi ta’minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

11. Joylarga yetkazilgan test topshiriqlarining maxfiyligini ta’minlash, jarayonlarning shaffof, adolatli va barcha xavfsizlik

choralarini ko‘rgan holda tashkil etish, olimpiada jarayonlarini (ishtirokchilar test topshiriqlarini bajarayotganda, hakamlar hay’ati ishlarni tekshirayotgan vaqtda) ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Facebook, Instagram) jonli tarzda namoyish qilinishiga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

12. Test natijalariga ko‘ra, sovrinli (1-, 2-, 3-o‘rin) o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, berilgan test topshiriqlarining yuqori ball beriladigan qismi bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi (21-30-savollar). Agar u ham teng bo‘lsa, ikkinchi o‘nlik (11-20-savollar) tahlil qilinadi. Uchala qism bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda g‘oliblikka da’vogarlarga 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) taqdim qilinadi.

3-bob. Hakamlar hay’ati va apellyatsiya

13. Olimpiadada tashkiliy qo‘mita tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay’ati tuziladi.

14. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so‘ng, auditoriya rahbari tomonidan o‘quvchilarning ishlari yig‘ib olinadi, skaner yoki rasmga olinib oldindan tashkil etilgan telegram kanalda e’lon qilinadi va shifrlangan holda hakamlar hay’atiga topshiriladi.

15. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag‘ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to‘g‘ri deb belgilangan bo‘lsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo‘yiladi.

16. Hakamlar hay’ati tomonidan o‘quvchilarning bajargan ishlari tekshirilayotgan paytda, tashkiliy qo‘mita tomonidan topshiriqlarning to‘g‘ri javoblari va yechimlari e’lon qilinadi.

17. Test topshiriqlari orasida xato tuzilgan yoki to‘g‘ri javobi mavjud bo‘lmagan savollar aniqlansa, barcha ishtirokchilarga mazkur savol uchun belgilangan ball beriladi.

18. Hakamlar hay’ati barcha o‘quvchilarning ishlarini tekshirib bo‘lgandan so‘ng, ballarni **Excel dasturig**a kiritadi hamda auditoriyaga yig‘ilgan ishtirokchilarga o‘z ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilarning auditoriyadagi xatti-harakatlari (o‘z ishlarini o‘zgartirib qo‘yishi,

javoblar varag‘ini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak) qat’iy nazoratga olinadi.

19. Ishtirokchilar o‘z ishlarini hakamlar hay’ati tomonidan to‘g‘ri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hay’atiga topshiradi.

20. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yig‘ib olingandan so‘ng, ballar o‘zgargan holatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi hamda yakuniy qaror va g‘olib bo‘lgan 3 nafar ishtirokchining javoblar varag‘idan nusxa olinib, barchaga e’lon qilinadi.

21. Agar ishtirokchilarda hakamlar hay’ati tomonidan qo‘yilgan ballarga yoki topshiriq bo‘yicha e’tirozlar bo‘lsa, u holda mazkur ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida qabul qilinadi. Qabul qilingan e’tirozlar hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Mazkur jarayonda ishtirokchi va uning fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

22. Qayta ko‘rib chiqish jarayonidan so‘ng barcha ishtirokchilarga yakuniy natijalar bo‘yicha izoh beriladi, bu jarayonda natijalar o‘zgarishi mumkin va bunda hakamlar hay’atining qarori qayta tasdiqlanadi.

23. Olimpiadada 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallab, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar Xalqaro geografiya olimpiadasiga saralashning Respublika bosqichida ishtirok etadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning birinchi (viloyat) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son, “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) birinchi (viloyat) bosqichi 2025-yil fevral oyida o‘tkazilsin.

2. Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning birinchi (viloyat) bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma va baholash mezonlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (keyingi o‘rinlarda - markaz) (T.Shermatov)ga:

olimpiadaning hududiy bosqichini barcha hududlarda bir vaqtda tashkil etilishini inobatga olib, olimpiada kuni va vaqtini belgilash;

olimpiadani me’yoriy hujjatlar talablari asosida to‘g‘ri, adolatli va shaffof tashkil etilishi va o‘tkazilishini nazoratga olish;

yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiada uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish va maxfiyligini

ta’minlagan holda joylarga yetkazish choralarini ko‘rish;

olimpiadani nazorat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarni kerakli materiallar bilan belgilangan muddatlarda hududlarga xizmat safariga yuborish, shuningdek, hududlarga yuborilayotgan mas’ullarning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarini, o‘rnatilgan tartibda ularning asosiy ish joyidan to‘lab berilishini ta’minlash;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

olimpiadani o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar 2025-yilda Respublika budjetidan Markazga tadbirlarni o‘tkazish uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirish;

olimpiadani tashkil qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni o‘z vaqtida belgilangan tartibda amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda:

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hududiy tashkiliy qo‘mitasi tarkibini tasdiqlash;

olimpiadaning sifatli, adolatli va shaffof tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlash;

uch kun muddatda olimpiadani tashkil etishga oid tegishli chora-tadbirlar dasturi va sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

olimpiadaning birinchi bosqichi g‘oliblarini mas’ullar tomonidan https://oo.uzedu.uz platforma orqali ro’yxatdan o’tkazilishini nazorat qilish;

hakamlar hay’ati hamda apellyatsiya komissiyasi, auditoriya rahbarlari, nazoratchilar tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;

olimpiada uchun hakamlar hay’ati tarkibiga hududdagi oliy ta’lim muassasalari, boshqa hududlardan tajribali o‘qituvchilarni jalb etish choralarini ko‘rish;

joriy yilning 6-fevraliga qadar olimpiadani o‘tkazish uchun yetarli moddiy- texnik bazaga ega, o‘quvchilar va ularning ota-onalari hamda o‘qituvchilari kelib- ketishi uchun qulay bo‘lgan joyni belgilash hamda bu haqida Markazga ma’lumot taqdim etish;

olimpiadani ochiq, adolatli va shaffof o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida, auditoriyalar va olimpiada o‘tkaziladigan joylarda

kuzatuv kameralarini o‘rnatish, har bir auditoriyaga xolis nazoratchi va kuzatuvchilarni jalb etish choralarini ko‘rish;

olimpiada ishtirokchilarini olimpiada o‘tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishga jalb qilingan mutaxassislar uchun olimpiadani tashkil etish, ishtirokchilar ishlarini baholash hamda g‘oliblarni belgilash yuzasidan amaldagi nizom, yo‘riqnoma hamda baholash mezonlari bo‘yicha tushuntirish va o‘quv seminarlari tashkil etish;

boshqa ta’lim muassasalaridan keladigan o‘quvchi va o‘qituvchilarni yotoqxona bilan ta’minlash hamda ularni ovqatlantirish choralarini ko‘rish;

olimpiadani yuqori saviyada tashkil etish hamda hududiy boshqarma tomonidan biriktirilgan mas’ul xodimning olimpiada jarayonlarida shaxsan qatnashishini ta’minlash;

olimpiada g‘oliblari va hakamlar hay’ati (jumladan, apellyatsiya komissiyasi) a’zolari uchun ko‘zda tutilgan mablag‘larni belgilangan tartibga ko‘ra sarflash hamda amalga oshirilgan xarajatlar yuzasidan Markazga ma’lumot taqdim etish;

olimpiada yakunlangandan so‘ng, qisqa muddatda g‘oliblarini tantanali taqdirlash marosimini tashkil etish;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan to‘g‘ri, sifatli rasmiylashtirilishini ta’minlash va natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomani Markazga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Markaz (T.Shermatov) Markazning 2025-yilgi olimpiadalar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida olimpiada g‘oliblarining mukofot pullari va hakamlar hay’ati (jumladan, apellyatsiya komissiyasi) a’zolarining ish haqlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining tegishli hisob raqamlariga o‘z vaqtida o‘tkazish choralarini ko‘rsin hamda tuzilgan shartnomalarga asosan to‘lovlami o‘rnatilgan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) olimpiada jarayonlarini

ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko‘rsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori A.Ubbiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 22-yanvar,
19-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 22-yanvardagi
19-son buyrug‘iga
ILOVA

Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning birinchi (viloyat) bosqichini o‘tkazish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA VA BAHOLASH MEZONLARI

1. Mazkur yo‘riqnoma 2024-2025-o‘quv yilida alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida asosiy olimpiadaning (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) birinchi (viloyat) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladi.

1-bob. Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda olimpiadani tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

3. Tashkiliy qo‘mita:

olimpiada o‘tkaziladigan joy va vaqti bo‘yicha barcha maxsus maktab-internat o‘quvchilari xabardor qilinishini ta’minlaydi;

hakamlar hay’ati tarkibi, apellyatsiya komissiyasi a’zosi, auditoriya rahbarlari ro‘yxatini shakllantiradi;

olimpiada nazorat materiallarining maxfiyligini ta’minlaydi;

olimpiada jarayonlarini belgilangan talablar asosida o‘tkazilishini ta’minlaydi;

olimpiada ishtirokchilari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni olympiad.uzedu.uz axborot tizimiga kiritilishini muvofiqlashtiradi;

olimpiada natijalari va hakamlar hay’ati qarori asosida g‘oliblarni keyingi bosqichda ishtirok etishi bo‘yicha tavsiyani vazirlikka taqdim etadi.

4. Olimpiada 9-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida matematika, ona tili va adabiyot, tarix hamda rus tili va adabiyoti (keying o‘rinlarda - rus tili) fanlaridan o‘tkaziladi.

5. Hududda ikki va undan ortiq maxsus maktab-internatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, Tashkiliy qo‘mita har tomonlama shart-sharoitlarni, kelib-ketish uchun qulay, uzoq masofalardan keluvchilar uchun yotoqjoy va ovqatlanish shart- sharoitlarini inobatga olgan holda, olimpiada bo‘lib o‘tadigan joyni belgilaydi.

Ishtirokchilarning olimpiadalar bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib- ketishlarini ta’minlashga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari va ta’lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

2-bob. Ona tili va adabiyot, matematika, rus tili fanlaridan yozma ishlarni baholash mezonlari

6. Olimpiada ona tili va adabiyot, rus tili hamda matematika fanlaridan **ikkita turda** tashkil qilinadi. Bunda:

6.1. Matematika fanidan birinchi tur uchun yozma ish topshiriqlari 5 ta masaladan iborat bo‘lib, yozma ish uchun **4 soat** *(240 daqiqa)* vaqt beriladi. Maksimal 50 ball. Har bir masala eng yuqori 10 ball bilan baholanadi.

T/r	Yechimning to’g’riligi (xatoligi)	Ball
1.	Mantiqiy fikrlab, xatosiz va kamchiliklarsiz yechilgan har qanday yechim, rasmlar, chizmalar va grafiklarni javobga mos ravishda	10
2.	Masala asoslab to‘liq yechilgan bo‘lsa, lekin 1-2 ta qo‘pol bo‘lmagan xatolar va hisoblashlarda yo‘l qo‘yilgan mayda kamchiliklar bo‘lsa	9
3.	Masala asoslab to‘liq yechilgan bo‘lsa, lekin 3-4 ta qo‘pol bo‘lmagan xatolar va hisoblashlarda yo‘l qo‘yilgan mayda kamchiliklar bo‘lsa	8
4.	O‘quvchi to‘g‘ri javobga erishgan bo‘lsada, yechishga yetarlicha yondashib yechim xususiy hollarda va asoslanmagan bo‘lsa	7
5.	O‘quvchi masalani yechishga to‘g‘ri yondashgan bo‘lib, to‘liq yecholmagan va yechimni asoslay olmagan bo‘lsa	6
6.	Masalani yechishda o‘quvchining to‘g‘ri yondashgani, lekin yechimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, to‘g‘ri javobni asoslash va	5
7.	O’quvchi masalani yechishga erishgan bo‘lib, yechishda tenglama, tengsizliklar va ayniyatlarni qo‘llay olmagan bo‘lsa	4
8.	Masalani yechishda o‘quvchining g‘oyasi to‘g‘ri bo‘lib, kamchiliklar ko‘pligidan to‘g‘ri yechimga erishmagan bo‘lsa	3

9.	Masala yechilmagan, lekin oqqa ko‘chirishda ayrim to‘g‘ri mulohazalari bo‘lsa	2
10.	Masala yechilmagan, lekin yechishga harakat qilib, haqiqatga yaqin chizmani bajargan bo‘lsa	1

6.2. Ona tili va adabiyot va rus tili fanlaridan birinchi tur uchun o‘quvchilarning yozma nutq qobiliyati, mustaqil fikrlashi hamda savodxonlik darajasi sinovdan o‘tkaziladi. **Esse** yozish uchun **2,5 soat** *(150 daqiqa)* vaqt ajratiladi.

Mazkur turda eng yuqori ko‘rsatkich 50 ballni tashkil qiladi.

Ona tili va adabiyot fanidan yozma ishni baholash mezoni

Quyidagi hollarda esse tekshirilmaydi va 4 ball bilan baholanadi:

- esse yozilgan, lekin mavzuga mos bo‘lmasa;
- essening hajmi 100 ta so‘zdan kam bo‘lsa;
- esse boshqa manbadan ko‘chirilgan bo‘lsa.

Esseni yozish uchun ajratiladigan umumiy vaqt **150 daqiqa**.

Esse matni 200 tadan 250 tagacha so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Esse matni tarkibiy qismlar kesimida: kirish 15-25 ta so‘z atrofida, asosiy qism 200 ta so‘z atrofida, xulosa 15-25 ta so‘z atrofida.

Esse matnining belgilangan so‘z hajmida ortiq qismi baholanmaydi (jumla yakuni bundan mustasno).

Esse yozilmagan bo‘lsa, 0 ball beriladi.

T/r	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball	0 ball
TOPSHIRIQ TALABLARINING BAJARILGANLIGI					
1	Esse to‘liq publitsistik uslubda yozilgan	Ayrim o‘rinlarda publitsistik uslubdan chekinilgan	Esse qisman publitsistik uslubda yozilgan	Esse to‘liq badiiy uslubidayozilgan	Esse to‘liq so‘zlashuv uslubidayozilgan
2	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash hamda talabgorning shaxsiy qarashlari to‘la yoritilgan	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash yoritilgan, talabgorning shaxsiy fikri yoritilmagan	Vaziyat yuzasidan qarashlarning bittasi to‘la yoritilgan	Vaziyat yuzasidan qarashlarning faqat bittasi qisman yoritilgan	Vaziyat yuzasidan qarashlar yoritilmagan

3	Berilgan vaziyat yuzasidan har ikkala qarashlar hayotiy misollar bilan dalillangan	Faqat bitta qarash dalil-langan	Har ikkala qarash uchun keltirilgan ayrim dalillar vaziyatga mos emas	Har ikkala qarash uchun keltirilgan dalillar vazi-yatga mos emas	Har ikkala dalillanmagan qarash
MATN YAXLITLIGI (NUTQ KOMPOZITSIYASI, NUTQNING MANTIQIYLIGI)					
4	Kirish, asosiy qism va xulosa to‘la yoritib berilgan. Kirish ikki-uch jumladan iborat. Berilgan vaziyat matni aynan ko‘chirilmagan. Asosiy qism kamida uchta xat-boshidan iborat. Xulosa ikki-uch jumladan iborat	Kirish qismi mavjud. Aso-siy qism ikki xatboshidan iborat, qisman yoritilgan. Xu-losa yozilgan, mezonga mos	Kirish qismi mavjud. Aso-siy qism ikki xatboshidan kam, mavzu yetarlicha yoritilmagan. Xulosa yozilgan, mezonga mos emas	Kirish qismi-da berilgan vaziyat. aynan ko’chi-rilgan. Asosiy qism ikki xatboshidan kam, mavzu yetarlicha yoritilmagan. Xulosa yozil-magan	Kirish qismi yozilmagan. Asosiy qism talabga mutlaqo mos kelmagan. Xulosa yozil-magan
5	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi) da xatolik kuza-tilmagan. Esse xatboshilarga to’g’ri ajratilgan	Mantiqiy-qu-rilish (matn qismlari yoki gap qurilishi) dayoki esseni xatboshilarga ajratishda (1-2 o’rinda) xatolikka yo‘l qo’yilgan	Mantiqiy-qu-rilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki esseni xatboshilarga ajratishda (3-4 o‘rinda) xatolikka yo‘l qo’yilgan	Mantiqiy-qu-rilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki esseni xatboshilarga ajratishda (5- 6 o‘rinda) xatolikka yo‘l qo’yilgan	Mantiqiy-qu-rilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da 7 va undan ko‘p o‘rinda xatolik-kayo’l qo‘yilgan. Essexatboshi-larga umuman ajratilmagan
6	Mantiqiy -maz-muniy izchillikka to‘liq rioya qilingan. Fikrlar takrori kuzatil-magan	Fikrlar takrori uchragan (1-2 o‘rinda), mantiqiy -maz-muniy izchillik uzilmagan	Fikrlar takrori uchragan (3-4 o‘rinda), mantiqiy -mazmuniy izchillikbuzil-gan	Fikrlar takrori uchragan (5- 6 o‘rinda), mantiqiy -mazmuniy izchillikbuzil-gan	Fikrlar takrori 7 va undan ortiq o’rinda uchragan, mantiqiy- maz-muniy izchillik buzilgan
TIL BIRLIKLARI USLUBIYATI (NUTQNING JO‘YALILIGI)					
7	Qo‘shimcha qo‘ llash bilan bog‘liq xatolik umuman uchramagan	Qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolik 1-2 o‘rinda uchragan	Qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolik 3-4 o‘rinda uchragan	Qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolik 5-6 o‘rinda uchragan	Qo‘shimcha qo‘llash bilan bog’liq xatolik 7 va undan ortiq o’rinda uchragan

8*	So‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik kuzatilmagan	So‘z qo‘llash bilan bog’liq uslubiy xatolik 1-2 o‘rinda kuzatilgan	So‘z qo’llash bilan bog’liq uslubiy xatolik 3-4 o‘rinda kuzatilgan	So‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik 5-6 o‘rinda kuzatilgan	So‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik 7 va undan ko‘p o‘rinda kuzatilgan
LUG‘AT BOYLIGI (NUTQNING BOYLIGI, IFODALILIGI VA SOFLIGI)					
9	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birikma (maqol, matal hikmatli so’zlar va ibora)lardan unumli foydalanilgan	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar vaboshqa barqaror birikmalardan ayrim o’rinlarda foydalanilgan	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mosmaxsus leksik birliklar vaboshqa barqaror birikmalardan foydalanilgan ayrim o‘rinlarda noo‘rin foydalanilgan	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birikmalardan noo‘rin foydalanilgan	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksikbirliklar va boshqa barqaror birikmalardan foydalanilmagan
10	Noo‘rin qo‘llangan shevaga oid so‘z yoki qo‘shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so‘zlar uchramaydi	Shevaga oid so‘z yoki qo‘shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so‘zlarning qo’llanishiga oid xatoliklar 1- 2 o‘rinda uchragan, ammo uslubiy g‘alizlik yuzaga kelmagan	Shevaga oid so‘z yoki qo’shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so‘zlarning qo’llanishiga oid xatoliklar 3-4 o‘rinda uchragan, uslubiy g‘alizlik yuzaga kelgan	Shevaga oid so‘z yoki qo’shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so‘zlarning qo‘llanishiga oid xatoliklar 5-6 o‘rinda uchragan, uslubiy g‘alizlik yuzaga kelgan	Shevaga oid so‘z yoki qo‘shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so‘zlarning qo’llanishiga oid xatoliklar 7 vaundan ko‘p o‘rinda uchragan, uslubiy g’alizlik yuzaga kelgan
SAVODXONLIK (NUTQNING TO‘G‘RILIGI)					
	5 ball	**4 ball**	**3 ball**	**2 ball**	**1 ball**
11	Imlo bilan bog‘liq xatolikumuman uchramagan	Imlo bilan bog‘liq xatolik 1- 2 o‘rinda uchragan	Imlo bilan bog‘liq xatolik 3-4 o‘rinda uchragan	Imlo bilan bog‘liq xatolik 5-6 o‘rinda uchragan	Imlo bilan bog‘liq xatolik 7 vaundan ortiq o‘rinda uchragan
12	Punktuat-sion xatolik umumanuch-ramagan	Punktuatsion xatolik 1-2 o‘rinda uch-ragan	Punktuatsion xatolik 3-4 o‘rinda uch-ragan	Punktuatsion xatolik 5-6 o‘rinda uch-ragan	Punktuatsion xatolik 7 va un-dan ortiq o‘rinda uchragan
JAMI: 50 ball					

- So‘z qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatoliklar:
- so‘zni noto‘g‘ri qo‘llash;
- so‘zlarni noo‘rin takrorlash;
- so‘zni ortiqcha qo‘llash;
- so‘zni tushirib qoldirish;
- bog‘lovchi vositalar, kiritmalar bilan bog‘liq xatolik.

ESLATMA: Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo‘yilmaydi.

3-bob. Ona tili va adabiyot, matematika, rus tili va adabiyoti va tarix fanlaridan test topshiriqlarini baholash mezonlari

7. Olimpiada ona tili va adabiyot, rus tili hamda matematika fanlaridan ikkinchi tur **test shakli**da tashkil qilinadi. Bunda:

ishtirokchilarga turli qiyinlik darajasidagi 30 ta test savollari taqdim qilinib, ularni bajarish uchun **90 daqiqa** vaqt beriladi. Test topshiriqlarining dastlabki 10 tasi sodda darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 0,9 ball bilan baholanadi;

keyingi 10 tasi o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,5 ball bilan baholanadi;

qolgan 10 tasi ochiq test (javobi yoziladigan) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,6 ball bilan baholanadi, jami 50 ball (**10*0,9+10*1,5+10*2,6=50**).

Ishtirokchilar ikki tur bo‘yicha umumiy 100 ball bilan baholanadi.

8. **Tarix fanidan** olimpiada bitta turda test sinovlari shaklida o‘tkaziladi. Bunda, 40 ta test savollari taqdim qilinadi va topshiriqlarni bajarish uchun **80 daqiqa** vaqt ajratiladi. Bunda:

Test topshiriqlarining dastlabki 10 tasi oddiy qiyinchilik darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,3 ball bilan baholanadi;

keyingi 15 tasi o‘rta qiyinlik darajasidagi yopiq (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,4 ball bilan baholanadi;

so‘ngi 15 tasi yuqori qiyinlik darajasidagi yopiq (A, B, C, D) test bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 3,4 ball bilan baholanadi, jami 100 ball (**10*1,3+15*2,4+15*3,4=100**).

9. Ona tili va adabiyot, rus tili va adabiyoti, tarix hamda matematika fanlaridan olimpiada natijalariga ko‘ra, har bir fan kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar g‘olib (1-, 2-, 3-o‘rinlar) aniqlanadi.

Sovrinli o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lganda, test topshiriqlarining qiyinlik darajasi yuqori bo‘lgan topshiriqlardan ko‘p ball to‘plagan o‘quvchiga ustunlik beriladi, agarda bunda ham ballar teng bo‘lsa, qiyinlik darajasi o‘rta bo‘lgan topshiriqlardan ko‘p ball to‘plagan o‘quvchiga ustunlik beriladi.

Har bir daraja bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda, o‘quvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha 3 ta test beriladi va g‘olib aniqlanadi.

Eslatma*! Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) ishtirokchilar har ikkala fanni har ikkala turini yozuv pribori va yozuv grifilidan foydalanib bajarishi shart. Javobi noma’lum va chizmali bo‘lgan misol, masala yoki test variantlari har ikkala tur davomida uchrashi mumkin. Bunday holatlarda, Hay’at a’zolari tomonidan javobi aniq, chizmasiz bo‘lgan masala, misol va test variantlariga almashtirilishi lozim.*

4-bob. Topshiriqlarni tuzish va yetkazib berish

10. Barcha fanlardan topshiriqlar Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi tomonidan tuziladi va maxfiyligi ta’minlangan holda joylarga yetkaziladi.

11. Joylarga yetkazilgan yozma ish va test topshiriqlarining maxfiyligini ta’minlash, jarayonlarning shaffof, adolatli va barcha xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda tashkil etish, olimpiada jarayonlarini (topshiriqlarni qog‘ozga chiqarish vaqtida, ishtirokchilar test topshirayotgan vaqtida, hakamlar hay’ati ishlarni tekshirayotgan vaqtda) ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram) jonli tarzda namoyish qilinishiga viloyat (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

12. Barcha hududlarda olimpiada jarayonlari bir vaqtda boshlanadi.

13. Topshiriqlar ishtirokchilarga o‘zbek va rus tillarida beriladi.

Ushbu fanlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasida qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi mumkin. Bunda, tarjima qo‘lyozma shaklda o‘quvchilarga taqdim etilishiga ruxsat beriladi.

5-bob. Hakamlar hay’ati

14. Olimpiadada tashkiliy qo‘mita tomonidan 3 kishidan 5 kishigacha *(ona tili va adabiyot, rus tili, matematika fanlaridan 5 nafardan, tarix fanidan 3 nafar)* tarkibda (boshqa hududlardan jalb qilinadigan hakamlar bilan birga) hakamlar hay’ati tuziladi.

15. Ishtirokchilarga topshiriqlarni bajarish uchun berilgan vaqt yakunlangandan so‘ng, auditoriya rahbari tomonidan o‘quvchilarning ishlari yig‘ib olinadi va shifrlangan holda hakamlar hay’atiga topshiriladi.

16. Hakamlar hay’ati olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni baholash mezoni va to‘g‘ri javoblar asosida xolisona tekshiradi hamda baholaydi.

17. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag‘ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to‘g‘ri deb belgilangan bo‘lsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo‘yiladi.

Ochiq test uchun 0 yoki tegishli ball qo‘yiladi, qisman to‘g‘ri deb baholanmaydi, yozma ish topshiriqlari esa belgilangan baholash mezoni asosida baholanadi.

18. Test topshiriqlari orasida xato tuzilgan yoki to‘g‘ri javobi mavjud bo‘lmagan savollar aniqlansa, barcha ishtirokchilarga mazkur savol uchun belgilangan ball beriladi.

19. Hakamlar hay’ati barcha o‘quvchilarning ishlarini tekshirib bo‘lgandan so‘ng, ballarni **Excel dasturig**a kiritadi hamda auditoriyaga yig‘ilgan ishtirokchilarga o‘z ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilarning auditoriyadagi xatti-harakatlari (o‘z ishlarini o‘zgartirib qo‘yishi, javoblar varag‘ini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak) qat’iy nazoratga olinadi.

20. Ishtirokchilar o‘z ishlarini hakamlar hay’ati tomonidan to‘g‘ri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hay’atiga topshiradi.

21. Agar ishtirokchilar hakamlar hay’ati baholagan ishlariga e’tiroz bildirsalar, ularga hakamlar hay’ati tomonidan shu savol

bo‘yicha tushuncha berilishi kerak.

22. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yig‘ib olingandan so‘ng, ballar o‘zgargan holatlar mavjud bo‘lsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi hamda yakuniy qaror va g‘olib bo‘lgan 3 nafar ishtirokchi barchaga e’lon qilinadi.

6-bob. Apellyatsiya komissiyasi

23. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay’ati tarkibiga kirmagan **uch nafargacha** fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

24. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida hakamlar hay’ati a’zolari, ishtirokchi va uning fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

25. Apellyatsiyaga olimpiada ishtirokchilarining faqatgina o‘zlari tomonidan bajarilgan ishlarini qayta ko‘rib chiqish mumkin.

26. Hakamlar hay’ati tomonidan baholangan ishtirokchining bajargan ishida baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay’ati qarorini bekor qilish yoki ularga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

27. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay’atiga apellyatsiya natijalari bo‘yicha izoh berib, olimpiada natijalarini o‘zgartirishi mumkin va bunda hakamlar hay’ati qarori qayta tasdiqlanadi.

Izoh: Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilari qatnashadigan Asosiy olimpiadaning respublika bosqichida test topshiriqlari olimpiada ishtirokchilariga to‘liq o‘qib eshittirilib, ular yozib olgach, topshiriqlarni (masalalarni, testlarni ishlash) bajarish uchun vaqt belgilanadi. Test topshiriqlari bilan tanishtirish va ko‘chirib olishga qancha vaqt ketishidan qat’i nazar, test topshiriqlarini bajarishga alohida vaqt ajratiladi Alohida ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) ishtirokchilar barcha fan topshiriqlarini yozuv pribori va yozuv grifilidan foydalanib bajarishi shart. Javobi noma’lum va chizmali bo‘lgan misol, masala yoki test variantlari uchragan holatlarda, hay’at a’zolari tomonidan javobi aniq, chizmasiz bo‘lgan masala, misol va test variantlariga almashtirilishi lozim.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to‘g‘risida nizom hamda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qaroriga asosan maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini hamda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarini rasmiylashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

Quyidagilar:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to‘g‘risida nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) 1-ilovaga muvofiq;

Malaka oshirish kurslari ta’lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga beriladigan sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibi (keyingi o‘rinlarda - Tartib) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova), Pedagogik mahorat markazlari rahbarlariga:

maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini tashkil etishda hamda malaka oshirish kurslari va ular oralig‘ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarida to‘liq ishtirok etgan va tegishli topshiriqlarni bajargan pedagog va mutaxassis xodimlarga beriladigan sertifikatlarni

rasmiylashtirishda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom va Tartibga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

Nizom hamda Tartibni barcha xodimlar va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga tanishtirish hamda faoliyat davomida ushbu hujjatlarga qat'iy amal qilish bo'yicha mas'uliyatini oshirish;

ichki (dastlabki, oraliq va yakuniy) nazorat uchun testlar hamda yakuniy attestatsiya uchun malaka ishi mavzulari banklarini shakllantirish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (X.Raximbayeva) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 28-yanvar,
23-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 28-yanvardagi
23-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining **ichki nazorati - dastlabki nazorat, oraliq nazorat** va **yakuniy attestatsiya** shaklida o‘tkaziladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

dastlabki nazorat - kurs boshida tinglovchilarning kurs dasturini o‘zlashtirishga tayyorligi darajasini, bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash maqsadida o‘tkaziladigan ichki nazorat turi;

kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti - A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Pedagogik mahorat markazlari, malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari, pedagog kadrlar tayyorlanadigan oliy ta’lim muassasalari;

loyiha ishi - muayyan pedagogik muammoni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to uni hal etish yo‘lini taqdim etishgacha bo‘lgan va tinglovchi(lar) tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan o‘quv faoliyati;

malaka ishi - malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan muayyan bir mavzu yoki yo’nalish doirasida mustaqil tayyorlangan,

tugallangan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ilmiy-uslubiy ish;

malaka oshirish kursi - malaka oshirishning tasdiqlangan o‘quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar tizimi;

malaka talablari - kasbiy rivojlanish kursi bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar;

dars - ta’limning asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, muayyan miqdordagi doimiy ta’lim oluvchilar tarkibi bilan belgilangan tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbir;

mikrodars - o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha cheklangan vaqt ichida o‘ziga xos, alohida usul va uslublarni tashkil qilingan dars;

oraliq nazorat - kurs davomida o‘quv dasturining muayyan bo‘limi (moduli) tugallangandan keyin tinglovchining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli;

tinglovchi - kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotining malaka oshirish kursiga qabul qilingan xodim;

strategik reja - tinglovchi mehnat qiladigan ta’lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq tadbirlar, mexanizmlar, muddatlar, mas’ullar hamda kutilayotgan natijani o‘zida aks ettirgan reja;

yakuniy attestatsiya - malaka oshirish kurslari oxiridagi yakuniy nazorat sinovi, ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini himoya qilish shaklida o‘tkaziladigan baholash jarayonlari;

yakuniy nazorat sinovi - kurs yakunida uning dasturiga kiruvchi fanlar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli;

maxsus elektron platforma - yakuniy nazorat sinovini o‘tkazish va malaka ishi himoyasi (loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti va boshqalar) jarayonlarini tashkil etadigan markazlashgan elektron dasturiy tizim;

2-bob. Dastlabki nazorat

4. **Dastlabki nazorat** kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti

tomonidan kurs boshida tinglovchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirishga tayyorligi darajasini va bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash maqsadida o‘tkaziladi.

5. Dastlabki nazorat kursni tashkil qilgan kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbari tasdiqlagan reja-jadvalga muvofiq unda belgilangan guruh va muddatlarda tashkilotning ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan o‘tkaziladi.

6. Dastlabki nazorat natijalari ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan tahlil qilinadi va tegishli takliflar bilan birga kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbariga taqdim qilinadi.

7. Dastlabki nazorat xolislik, shaffoflik va tezkorlikni ta’minlash maqsadida kompyuter vositasida test sinovi (kirish testi) shaklida o‘tkaziladi. Dastlabki nazoratning samaradorligini ta’minlash maqsadida bilimlarni aniqlashning boshqa (yozma ish, diktant, so‘rovnoma va h.k.) shakllaridan ham foydalanish mumkin.

8. Dastlabki nazorat o‘quv jarayoniga xalal bermagan holda, darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi.

9. Test shaklida o‘tkaziladigan dastlabki nazorat maxsus kompyuter dasturi orqali o‘tkaziladi. Mazkur kompyuter dasturining mobil versiyasidan foydalangan holda dastlabki nazoratni onlayn tarzda o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi.

10. Dastlabki nazorat natijalari tinglovchilarning oraliq va yakuniy nazorati (attestatsiyasi) natijalariga ta’sir etmaydi, lekin kursning o‘quv modullari bo‘yicha kontentlar (ma’ruza matnlari, amaliy dars ishlanmasi va boshqa o‘quv materiallari) mazmuniga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishga asos bo‘ladi.

3-bob. Oraliq nazorat

11. **Oraliq nazorat** kursning o‘quv rejasidagi o‘quv modullari (yoki o‘quv bloki) tugagandan keyin tinglovchining bilim va ko‘nikmalarini baholash maqsadida yakka tartibdagi topshiriqlar (test, referat, ishlanma, yozma ish, kurs ishi, mustaqil, amaliy ishlar, sinovlar va shu kabilar) shaklida o‘tkaziladi.

12. Oraliq nazorat malaka oshirish kursining o‘quv rejasiga binoan kursni tashkil qilgan kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbari tasdiqlagan reja-jadvalga muvofiq unda belgilangan guruh va muddatlarda tashkilotning ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi

tomonidan o‘tkaziladi.

13. Oraliq nazorat natijalari ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan tahlil qilinadi va tegishli takliflar bilan birga kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbariga taqdim qilinadi.

14. Oraliq nazoratlar o‘tkaziladigan o‘quv modullari (o‘quv bloklari) malaka oshirish kursining o‘quv rejasida belgilanadi. Oraliq nazoratlarni o‘tkazish shakli va undagi topshiriqlar soni kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti Kengashi tomonidan belgilanadi. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi.

15. Oraliq nazorat topshiriqlarini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi. Oraliq nazorat topshiriqlari uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizidan (55 balldan) kam natijaga erishgan tinglovchi oraliq nazoratlarda yetarli ball to‘play olmagan hisoblanadi.

16. Oraliq nazorat kursning o‘quv rejasiga kiruvchi bir-nechta o‘quv modullari bo‘yicha alohida-alohida o‘tkazilgan bo‘lsa ularning har biri uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizidan kam bo‘lmagan natijaga erishgan tinglovchi oraliq nazoratda yetarli ball to‘plagan hisoblanadi. Bunda oraliq nazoratning natijasi alohida-alohida o‘tkazilgan nazoratlar natijalarining o‘rtachasi sifatida aniqlanadi.

17. O‘quv jarayoni o‘quv modullaridan iborat bloklar tarzida tashkil etilgan kurslarda oraliq nazorat, har bir blok yakunida, uning tarkibiga kiruvchi har bir o‘quv moduli bo‘yicha alohida-alohida va turli shakllarda, shuningdek blok tarkibiga kiruvchi barcha o‘quv modullari bo‘yicha ularga ajratilgan dars soatlariga mutanosib ulushda shakllantirilgan yagona test bankidan foydalanilgan tarzda test sinovi shaklida o‘tkazilishi mumkin.

18. Oraliq nazoratlarda yetarli ball to‘play olmagan tinglovchiga kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbari ruxsati bilan (bir kundan so‘ng) qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Oraliq nazorat topshiriqlarini bajarmagan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga qo’yilmaydi.

19. Oraliq nazorat natijalari uni o’tkazgan ishchi guruhi tomonidan tegishli qaydnomalarga kiritiladi va akademik faoliyatni tashkil etish bo‘limiga taqdim etiladi.

20. Kursning o‘quv rejasida oraliq nazorat belgilanmagan bo‘lsa uning o’tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4-bob. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarining yakuniy attestatsiyasi

21. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarining yakuniy attestatsiyasi mazkur kurslarning o‘quv rejasi hamda o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq tashkil etiladi.

22. Yakuniy attestatsiya malaka oshirish kursi oxirida o‘tkaziladigan yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasidan iborat.

23. Yakuniy nazorat kompyuter vositasida test sinovi shaklida o‘tkaziladi.

24. Yakuniy attestatsiya ta’lim muassasasida malaka oshirish kurslari bo‘yicha tuziladigan yakuniy attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy attestatsiya komissiyalarini tuzish tartibi

25. Yakuniy attestatsiya komissiyalari (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) rais va 2 ta a’zodan iborat tarkibda har oyda shakllantiriladi va ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

26. Komissiyalar raisi va tarkibi ta’lim tashkilotining malakali professor- o‘qituvchilari, ta’lim boshqaruvini amalga oshiradigan tashkilotlarning tajribali mutaxassislari yoki nodavlat ta’lim tashkilotlarining vakillaridan iborat bo‘ladi.

27. Komissiyalar tarkibi ta’lim muassasasi rahbari tomonidan yakuniy attestatsiya sinovi boshlanishidan kamida bir hafta oldin tasdiqlanadi.

28. Komissiyalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tinglovchilarning malaka ishi himoyasining belgilangan mezonlar asosida baholash;

yakuniy nazorat sinovi va malaka ishi natijalarini umumlashtirish;

yakuniy attestatsiya natijalari bo‘yicha bayonnomalarni rasmiylashtirish.

29. Komissiyalar o‘z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etadi.

30. Professor-o‘qituvchilammg Komissiya tarkibida faoliyat ko‘rsatgan davri kursning o‘quv rejasi va amaldagi “Vaqt me’yorlari”ga muvofiq ularning bajarilgan o‘quv yuklamalariga kiritiladi.

31. Tashkilotning professor-o‘qituvchi lavozimida ishlamaydigan Komissiya raisi va a’zolariga o‘quv rejasi va amaldagi “Vaqt me’yorlari”ga muvofiq soatbay asosda haq to‘lanadi.

6-bob. Yakuniy nazorat (test sinovlari)ni tashkil etish

32. Yakuniy nazorat (test sinovi) davlat ta’lim talablarida belgilangan zaruriy talablar mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni tinglovchi tomonidan o‘zlashtirilganligi darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

33. Yakuniy nazorat sinovi malaka oshirish kursining o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan barcha o‘quv modullari bo‘yicha ularga ajratilgan soatlar hajmiga mos ravishda (har bir soat dars uchun kamida 4 tadan) shakllantirilgan test savollari zaxirasi asosida o‘tkaziladi.

34. Yakuniy nazorat sinovi uchun testlar test savollari zaxirasi tarkibidan o‘quv rejasidagi o’quv bloklari va modullariga ajratilgan soatlar miqdoriga mos nisbatlarda tanlab olinadi.

35. Yakuniy nazorat sinovi uchun zaxiradan tanlab olinadigan va test sinovi jarayonida tinglovchiga taqdim etiladigan test savollari miqdori A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan belgilanadi.

36. Baholash jarayonining xolisligi va tezkorligini ta’minlash maqsadida yakuniy nazorat uchun zaxiradan test savollarini tanlab olish va test sinovini o’tkazish maxsus kompyuter dasturi vositasida amalga oshiriladi.

37. Yakuniy nazorat ta’lim muassasasining tegishli kursda dars mashg‘ulotlarini olib borishga jalb qilinmagan mutaxassislaridan shakllantirilgan ishchi guruhi tomonidan o‘tkaziladi. Mazkur ishchi guruh tarkibi Kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

38. Yakuniy nazorat kompyuter tomonidan tinglovchiga dastlabki test savolini taqdim etgan vaqtdan boshlanadi va test

sinovlarini bajarish uchun har bir test savoliga 2 daqiqadan vaqt beriladi.

39. Yakuniy nazoratni o‘tkazishda foydalaniladigan kompyuter dasturi taqdim etilayotgan barcha test savollarini tinglovchi tomonidan ko’zdan kechirib chiqish, ularga birin-ketin yoki tanlab olgan holda javob berish, test sinovini ajratilgan muddatdan ilgari tugatish kabi imkoniyatlarga ega bo’lishi lozim.

40. Yakuniy nazorat 40 ballik (100 foiz) mezon asosida baholanadi.

41. Yakuniy nazorat natijalari ishchi guruhi tomonidan tegishli qaydnomaga kiritiladi va 1-ilovada keltirilgan namunadagi qaydnoma rasmiylashtiriladi va akademik faoliyatni tashkil etish bo’limiga topshiriladi.

42. Yakuniy nazorat jarayonlarini tashkil qilish va o’tkazish A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan muvofiqlashtiriladi.

7-bob. Malaka ishi himoyasi va uni baholash

43. Malaka ishi mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan talablar asosida kurs tinglovchilari tomonidan mustaqil ravishda tayyorlanadi va maxsus elektron platformaga tinglovchi tomonidan yuklanadi.

44. Malaka ishi himoyasi maxsus jihozlangan o‘quv xonalarida zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida, taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

45. Kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti Kengashi tomonidan malaka ishi mavzusining xususiyatlariga ko’ra ularning himoyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa shakllari belgilanishi mumkin.

46. Malaka ishi uning shakliga muvofiq tarzda **muayyan bir mavzu** yoki **muayyan faoliyat yo‘nalishi** bo’yicha tayyorlanadi va himoya qilinadi.

47. **Muayyan bir mavzu** bo‘yicha tayyorlanadigan malaka ishining mavzulari ta’lim tashkiloti tomonidan kursdagi dars mashg‘ulotlarining birinchi haftasida e’lon qilinadi va tinglovchilar tomonidan tanlanadi.

48. **Muayyan bir mavzu** bo‘yicha malaka ishi mavzudan kelib chiqqan holda **loyiha ishi** yoki **mikrodars** shaklida tayyorlanishi

mumkin.

Loyiha ishi shaklida bajarilgan malaka ishini baholash mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Mikrodars shaklida bajarilgan malaka ishini baholash mazkur Nizomning 4-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

49. Tinglovchilarga malaka ishi mavzularining ro‘yxati akademik faoliyatni tashkil etish bo‘limi tomonidan kurs mashg‘ulotlarining birinchi haftasida taqdim etiladi.

50. **Muayyan faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan malaka ishini baholash** mazkur Nizomga 5-ilovada keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

51. Malaka ishi himoyasi (taqdimoti) bahosi himoyada ishtirok etgan attestatsiya komissiyasining har bir a’zosi tomonidan qo‘yilgan ballar o‘rtachasi hisobidan aniqlanadi.

52. Yakuniy attestatsiyaning baholash jarayonlari maxsus elektron platforma orqali amalga oshirilishi mumkin.

53. Malaka ishi 60 ballik (100 foiz) mezon asosida baholanadi.

54. Komissiyaning har bir a’zosi malaka ishi bo‘yicha tinglovchiga qo‘ygan balni tinglovchi xonani tark etmasdan o‘qib eshittiradi.

55. Malaka ishi himoyasiga qo‘yilgan baholar ushbu Nizomning 6-ilovasidagi qaydnomada qayd etiladi.

56. Malaka ishi himoyasi (taqdimot)da uzrli sabablarsiz qatnashmagan tinglovchining malaka ishi himoyasi qoniqarsiz baholangan hisoblanadi.

57. Yakuniy attestatsiya sinovlari test sinovi va malaka ishi himoyasini o‘tkazish bosqichlari yoki ketma-ketligi kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti tomonidan belgilanadi.

9-bob. Yakuniy attestatsiya natijalarini umumlashtirish

58. Yakuniy attestatsiyaning umumiy natijasi yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasi natijalari yig‘indisi (jami 100 ballgacha) dan iborat bo’ladi.

59. Tinglovchilar yakuniy attestatsiya bosqichlaridan kamida 56 ball va undan yuqori natija ko‘rsatsa, uni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi hamda ularga sertifikat beriladi.

60. Yakuniy attestatsiyaning umumiy bahosi yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasining baho (ball)lari yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

61. Yakuniy attestatsiyada qo‘yilgan baholar komissiya majlisi qarori bilan ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

62. Yakuniy attestatsiya natijalari ijobiy bo‘lsa, komissiya tomonidan tinglovchiga malaka oshirganlik haqida tasdiqlangan namunadagi sertifikat berish haqida qaror qabul qilinadi.

63. Yakuniy attestatsiya natijalari salbiy bo‘lgan tinglovchiga kursda o‘qiganligi to‘g‘risida ushbu Nizomning 7-ilovasidagi shaklga muvofiq ma’lumotnoma beriladi.

64. Yakuniy attestatsiya komissiyasi bayonnomasi uning raisi hamda a’zolari tomonidan imzolanib rasmiylashtiriladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

65. Uzrli sabablarga ko‘ra yakuniy nazorat yoki malaka ishi himoyasiga qatnasha olmagan tinglovchi kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbarining ruxsati bilan mazkur kurs davom etadigan muddat ichida boshqa guruhda o‘tkaziladigan yakuniy nazorat yoki malaka ishi himoyasiga kiritilishi mumkin.

“Maktabgacha va maktab
ta’limi tashkilotlari xodimlari
malakasini oshirish sifatining ichki
nazorati to‘g‘risida nizom”ga
1-ILOVA

Malaka oshirish kursi tinglovchilari tomonidan yakuniy nazoratda (test sinovida) qayd etilgan natijalar

T/r	**Tinglovchining F.I.Sh**	**Sinov natijasi** (maks.ball - 40)
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
...		

Akademik faoliyatni tashkil etish bo‘limi
20___y.

"Maktabgacha va maktab ta'limi
tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish
sifatining ichki nazorati to'g'risida nizom"ga
2-ILOVA

Malaka ishini bajarishga qo'yiladigan talablar

1-§. Malaka ishi va uning shakllari

1. Malaka ishini bajarish malaka oshirish kurslari tinglovchilarini o'qitishning yakuniy bosqichi hisoblanib, tinglovchi tomonidan o'qitish uslubiyati, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha **muayyan bir mavzu** yoki **muayyan faoliyat yo'nalishi** doirasida mustaqil yozilgan va mantiqan tugallangan o'quv-uslubiy ishlarning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan natijasi hisoblanadi.

2. **Muayyan mavzudagi** malaka ishi fanlarni o'qitish uslubiyati, ta'lim- tarbiya sifatini oshirish va ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning dolzarb jihatlariga bog'lanishi hamda o'quv-uslubiy yoki tashkiliy-amaliy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. Muayyan mavzuda tayyorlanadigan malaka ishlari uchun namunaviy mavzular ro'yxati shakllantiriladi va kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Tinglovchilarga muayyan mavzuda tayyorlanadigan malaka ishi mavzusini tanlash huquqi beriladi. Tinglovchini o'qishga yo'llagan buyurtmachi (muassasa, tashkilot) zaruriy asoslarni ko'rsatgan holda malaka ishi mavzusi bo'yicha takliflar kiritishi mumkin.

5. Malaka ishi mavzusi akademik faoliyatni tashkil etish bo'limi taqdimnomasiga binoan ta'lim muassasasi rahbari buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

6. **Muayyan mavzudagi malaka ishini** bajarish **loyiha ishi** yoki **mikrodars** shaklida amalga oshirilishi mumkin.

7. Tinglovchilarning faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib ularning malaka ishi shakli kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan belgilanadi.

8. **Loyiha ishi** o‘qitish uslubiyati, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha **muayyan bir muammoni** hal qilishga yo‘naltirilgan tashkiliy-pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan o‘quv-izlanish harakatlari mahsuli.

9. Loyiha ishini bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;

- loyihaviy faoliyatni tashkil etish;

- loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;

- loyihaviy vazifalarni hal etish;

- natijalar taqdimotini tayyorlash;

- loyihaning taqdimoti va himoyasi;

- loyiha ishi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus eleklron platformaga joylashtiriladi.

10. Loyiha ishi kamida 2 nafar va ko‘pi bilan 5 nafar tinglovchilar tomonidan mustaqil bajariladi.

11. Loyiha ishining himoyasi ijrochilar guruhining umumiy taqdimoti sifatida amalga oshiriladi. Umumiy taqdimot bir ijrochi yoki bir-nechta ijrochi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

12. Loyiha ishining taqdimotida har bir ijrochi o‘zining umumiy loyihadagi ishtiroki va natijaga qo‘shgan hissasi haqida axborot beradi hamda berilgan savollarga javob beradi.

13. **Mikrodars** - o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha cheklangan vaqt ichida o‘ziga xos, alohida usul va uslublarni tashkil qilingan dars.

14. Mikrodars ma’lum bir mavzu yo‘nalishida aniq bilim va ko’nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil qilinadi.

15. Mikrodarsni tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- mikrodars mavzusini tanlash;

- mikrodars ishlanmasini tayyorlash;

- mikrodars uchun ko’rgazmali materiallarni tayyorlash;

- mikrodars uchun tarqatma materiallarni tayyorlash;

- mikrodars taqdimotini tayyorlash va uni o‘tkazish;

- mikrodars ishlanmasi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus eleklron platformaga joylashtiriladi.

16. Mikrodars shaklidagi malaka ishi individual yoki kamida

2 nafar va ko‘pi bilan 5 nafar tinglovchi tomonidan hamkorlikda tayyorlanadi hamda guruhning har bir a’zosi mikrodars qismlarini o‘tib berish orqali himoya qiladi.

17. Hamkorlikda tayyorlangan loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti uchun har bir tinglovchiga 5-7 daqiqa vaqt beriladi.

18. **Muayyan faoliyat** yo‘nalishidagi malaka ishi ta’lim muassasasi yoki ta’limni boshqaruv organining (keyingi o‘rinlarda - muassasa) oxirgi yillardagi faoliyati natijalarini tahlil qilish asosida mazkur faoliyatni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarishning o‘quv-uslubiy va tashkiliy-amaliy yo‘llarini belgilash hamda malaka oshirishdan keyingi davr uchun “Strategik reja”ni ishlab chiqish va uni bajarilishini ta’minlash masalalariga bag’ishlanadi.

19. Muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishlarini bajarishda har bir tinglovchi o‘zining faoliyatini va o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan muassasani tadqiqot obyekti sifatida tanlaydi. Bunday tavsifdagi malaka ishlari uchun mavzular ro‘yxatini shakllantirish talab etilmaydi.

20. Muayyan faoliyat yo’nalishidagi malaka ishini tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- muassasaning oxirgi yillardagi faoliyati natijalarini tahlil qilish;

- muassasa faoliyatidagi mavjud muammoni yoki muassasani rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash;

- muammoni hal qilish yoki muassasani rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

*- takliflardan kelib chiqqan holda muassasani rivojlantirish bo‘yicha “*Strategik reja *”ni ishlab chiqish;*

- malaka ishining taqdimotini tayyorlash va uni o‘tkazish;

- muayyan faoliyat yo’nalishidagi malaka ishi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus eleklron platformaga joylashtiriladi.

21. Muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishi tinglovchi tomonidan mustaqil tayyorlanadi va shaxsan himoya qilinadi.

22. Malaka ishini bajarishning oxirgi muddati akademik faoliyatni tashkil etish bo’limi tomonidan belgilanadi.

23. Tinglovchi tomonidan malaka ishlari belgilangan muddatda baholashning maxsus elektron platformaga

yuklanmagan taqdirda himoya jarayoniga qo‘yilmaydi.

2-§. Malaka ishi bajarilishiga qo‘yiladigan talablar

24. Malaka ishi ta’lim olib borilgan tilda yoki tinglovchining xohishiga binoan xorijiy tillardan birida bajariladi. Xorijiy tilda bajarilgan malaka ishiga davlat tilida annotatsiya beriladi.

25. Malaka ishi matni Times New Roman 14 kegl shrift, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tili alifbosida yoki zaruratdan kelib chiqib boshqa alifboda bayon etilishi mumkin tayyorlanadi. Malaka ishining hajmi 1,15 intervalda 10-12 betdan iborat bo‘ladi va ilovalar bunga kirmaydi.

26. Malaka ishi matni varaqning chap tomonidan 30 mm, yuqori tomonidan 20 mm, o‘ng tomonidan 15 mm, quyi tomonidan 20 mm qoldirib yoziladi. Sahifalarning tartib raqami varaqning ostki qismi markaziga qo‘yiladi.

27. **Malaka ishi** quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

titul varag‘i;

annotatsiya;

kirish;

asosiy qism;

xulosa va tavsiyalar;

strategik reja (faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha malaka ishi uchun);

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

ilovalar.

28. Malaka ishi tarkibiy qismlari malaka oshirish kursi yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

29. Malaka ishining tarkibiy qismlariga va mazmuniga qo’yiladigan talablar kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi va uning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Malaka ishi maxsus elektron platformada saqlanadi.

“Maktabgacha va maktab
ta’limi tashkilotlari xodimlari
malakasini oshirish sifatining
ichki nazorati to‘g‘risida nizom”ga
3-ILOVA

Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan loyiha ishi shaklida tayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Ball
Loyiha ishining tayyorlanish sifatini baholash mezonlari		
1.	Maqsad shakllantirilgan, aniq asoslangan va unga erishish rejasi batafsil berilgan	8
2.	Mavzu muammosi aniq shakllantirilgan, asoslantirilgan va chuqur xarakterga ega	8
3.	Mavzu to‘liq ochib berilgan, muallif chuqur bilimlarni namoyish etgan	8
4.	Tanlangan metodlar to‘g‘ri va samarali qo‘llanilgan, qo‘yilgan maqsadlarga erishilgan	8
5.	Ish davomida yuzaga kelgan vaziyatlarning tahlili taqdim etilgan, zarur xulosalar chiqarilgan va ish istiqbollari belgilangan	8
Loyiha ishi himoyasining baholash mezonlari		
6.	Ish mazmunining mavzuga muvofiqligi	5
7.	Muallif ijodining mustaqillik darajasi	5
8.	Loyiha ishini taqdim etish mahorati	10
Jami ball		**60**

"Maktabgacha va maktab
ta'limi tashkilotlari xodimlari
malakasini oshirish sifatining
ichki nazorati to'g'risida nizom"ga
4-ILOVA

Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan mikrodars shaklidatayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari

Mikrodarsni baholash mezonlari

Mikrodarsda o'qituvchining dars ishlanmasini tuzish va o'quv jarayonini tashkil etish qobiliyati hamda mikrodarsni o'tish davomidagi pedagogik mahorati, foydalaniladigan metodlarning samaradorligi baholanadi. Mikrodarsni baholashda ikki jihatga e'tibor beriladi:

1. Dars ishlanmasining sifati (20 ball);
2. Tinglovchning pedagogik mahorati (40 ball).

1. Dars ishlanmasining sifatini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	To'liq (2 ball)	Qisman (1 ball)	Yo'q (0 ball)
1.	Darsning maqsadi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturiga mos kelishi			
2.	Darsning maqsadi va kutilgan natijaning aniq va tushunarli shaklda belgilanganligi			
3.	Dars rejasining barcha bosqichlari (kirish, asosiy qism, yakuniy qism) aniq, bir-biriga mantiqan bog'liq tuzilganligi			
4.	Har bir bosqich uchun yetarli vaqt ajratilganligi			
5.	Darsda foydalaniladigan metodlar to'g'ri tanlanganmi, ya'ni ular o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilganligi			

6.	Dars ishlanmasida foydalaniladigan materiallar va vizual vositalar (taqdimotlar, grafiklar, videolar) to‘g‘ri tanlanganligi			
7.	O‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qiladigan usullardan foydalanilganligi			
8.	Dars yakunida o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun faoliyatlar rejalashtirilganligi			
9.	Darsdagi har bir faoliyatning maqsadi aniq belgilanganligi			
10.	Darsdagi summativ va formativ baholashning darsning maqsadiga mosligi			
	Jami (maksimal ball - 20 ball)			

2. Tinglovchning pedagogik mahoratini baholash mezonlari

T/r	Mikrodarsni baholash mezonlari	Ball
1.	Mikrodars dars ishlanmasiga muvofiq amalga oshirildi	4
2.	Mikrodars materiallarining o‘quvchilarning yosh va bilim darajasiga mosligi	4
3.	Qo‘llanilgan metodlarning o‘quvchilarni faol ishtirok etishga unday olgani	4
4.	O‘qituvchi mikrodars materialini aniq va tushunarli qilib yetkazib berdi	4

5.	O‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan xushmuomalada bo‘ldi, ular bilan til topa oldi	4
6.	Barcha o‘quvchilarni qamrab olishga e’tibor qaratildi	4
7.	Mikrodarsga yetarli vaqt ajratildi	4
8.	Darsda ijodiy va noan’anaviy yondashuvlar ishlatildi	4
9.	Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy vositalar samarali qo‘llanildi	4
10.	Dars davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni o‘qituvchi hal qila oldi	4
	Jami ball:	**40 ball**

“Maktabgacha va maktab
ta’limi tashkilotlari xodimlari
malakasini oshirish sifatining
ichki nazorati to‘g‘risida nizom”ga
5-ILOVA

Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan muayyan faoliyat yo‘nalishida tayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Ball
Malaka ishining tayyorlanish sifatini baholash mezonlari		
1.	Malaka ishining tarkibiy qismlari va mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, ma’lumotlar asoslantirilgan va mantiqiy davomiyligi keltirilgan	8
2.	Muammo aniq shakllantirilgan, asoslantirilgan va yetarli tahlilga ega	8
3.	Tinglovchi tomonidan ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bo’yicha innovatsiyalar taklif etilgan	8
4.	Malaka ishida yoritilgan ma’lumotlar asoslangan *(maqsad va xulosalar mos)*	8
5.	“Strategik reja”dagi tadbirlarning malaka ishi mazmuniga mos va undagi tadbirlar, tadbirlarga belgilangan muddatlar va ijrochilar to‘g‘ri tanlangan	8
Loyiha ishi himoyasining baholash mezonlari		
6.	Ish mazmunining mavzuga muvofiqligi hamda muallif ijodining mustaqillik darajasi	5
7.	Loyihani taqdimot qilishda berilgan vaqtdan unumli foydalangan holda taqdimot mazmunini to‘liq tushuntirib bera olganligi	5
8.	Loyihada axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish darajasi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi.	5
9.	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompetensiyalarni egallaganligi, muloqot maneralarini tanlay olishi	5
Jami ball		**60**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 28-yanvardagi
23-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarni rasmiylashtirish TARTIBI

1. Ushbu tartib malaka oshirish kurslari va ular oralig‘ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarida to‘liq ishtirok etgan va tegishli topshiriqlarni bajargan pedagog va mutaxassis xodimlarga beriladigan sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

tinglovchi - malaka oshirish kursiga qabul qilingan xodim;

maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslari sertifikatlar reyestri (keyingi o‘rinlarda - Reyestr) - malaka oshirish kursi tinglovchilariga berilgan sertifikatlar bazasini o‘z ichiga olgan elektron axborot tizimi;

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) — o‘quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ta’lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish va ularga o‘quv modullarini onlayn tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim;

yakuniy attestatsiya - malaka oshirish kurslari oxiridagi yakuniy nazorat sinovi, ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini himoya qilish shaklida o‘tkaziladigan baholash jarayonlari.

3. Malaka oshirish kursi dasturini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilarga kursni tashkil qilgan ta’lim muassasasi tomonidan davlat namunasidagi elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (sertifikat) beriladi.

4. Malaka oshirish kursiga qabul qilingan tinglovchilar

haqidagi ma'lumotlar kursni tashkil etgan kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda - ta'lim tashkiloti) tomonidan elektron platformaga kiritiladi.

5. Mazkur ma'lumotlar o'z vaqtida, aniq va to'liq kiritilishi uchun kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

6. Malaka oshirish kurslari yoki ular oralig'ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarini yakunlash buyrug'i imzolaganidan keyin tinglovchilarning elektron platformadagi shaxsiy kabinetida kursni tamomlaganlik to'g'risida sertifikatlar shakllantiriladi.

7. Sertifikat elektron platforma orqali elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan holda beriladi.

8. Malaka oshirganlik haqidagi sertifikatlar tinglovchilarning elektron platformasidagi shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladi.

9. Malaka oshirganlik haqidagi sertifikatlarning reyestri elektron platforma orqali yuritiladi.

10. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish sertifikatining haqiqiyligi elektron platformadagi Sertifikatlar reyestri bazasidan tekshirish orqali aniqlanadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2024-2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-346-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2024-2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida Asosiy olimpiadaning to’rtinchi (respublika) bosqichini (keyingi o’rinlarda - Asosiy olimpiada) fanlar bo‘yicha ixtisoslashuvni kuchaytirish maqsadida hududlarda (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari) o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichini fanlar kesimida hududlarda o‘tkazish jadvali 1-ilovaga muvofiq;

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda - Tashkiliy qo‘mita) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma 3-ilovaga muvofiq;

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichi ishtirokchilarining yozma ishlarini baholash mezonlari 4-ilovaga muvofiq;

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichi ishtirokchilarining test topshiriqlarini baholash mezonlari

5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining aniq fanlar yo‘nalishida olimpiadaning respublika bosqichi Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasi nomi bilan 2025-yil may oyida o‘tkazilishi inobatga olinsin.

Al-Xorazmiy nomidagi tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining respublika bosqichi Asosiy olimpiada bilan bir vaqtda 1-ilovaga muvofiq bir joyda o‘tkazilsin.

4. Tashkiliy qo‘mitaga:

olimpiadaning hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash;

Al-Xorazmiy nomidagi tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining respublika bosqichini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash;

olimpiadani shaffof, adolatli va sifatli o‘tishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (T.Shermatov)ga:

Asosiy olimpiadani belgilangan tartibda tashkil etish va o‘tkazishni muvofiqlashtirish;

Asosiy olimpiada ishtirokchilarining Face ID (odam yuzining hajmli-fazoviy shaklining skaneri) orqali o‘quvchilarni olimpiada jarayonlariga kiritishni tashkil etish;

Asosiy olimpiadani nazorat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarni kerakli materiallar bilan belgilangan muddatlarda hududlarga xizmat safariga yuborish, shuningdek, hududlarga yuborilayotgan mas’ullarning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari o‘rnatilgan tartibda ularning asosiy ish joyidan to‘lab berilishini ta’minlash;

Asosiy olimpiadaning hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi, auditoriya rahbarlari, nazoratchilar tarkibiga munosib nomzodlarni tanlash va jalb etish;

Asosiy olimpiadaga jalb qilingan mutaxassislar uchun olimpiada o‘tkazishdan oldin o‘quv seminarlari tashkil etish;

Asosiy olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan to‘g‘ri, sifatli rasmiylashtirilishi va natijalar bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomani Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etishni ta’minlash;

Asosiy olimpiada g‘oliblari uchun diplomlarni tayyorlash va mas’ullar orqali hududlarga yetkazilishini ta’minlash;

yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda Asosiy olimpiada hamda Al -Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science), Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasidagi Respublika olimpiadalarining tuman (shahar), hududiy, respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish, chop etish va joylarga yetkazish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish;

Asosiy olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science), Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasidagi Respublika olimpiadalarining tuman (shahar), hududiy, respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish, chop etish va joylarga yetkazish bo‘yicha sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda amalga oshirish;

Asosiy olimpiadani o‘tkazish, shuningdek, Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science) hamda Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasidagi Respublika olimpiadalarining tuman (shahar), hududiy, respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini chop etish, joylarga yetkazish bilan bog‘liq barcha sarf-xarajatlar Markazning 2025-yilgi olimpiadalar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar smetasida uchbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilansin;

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichi fanlar kesimida g‘oliblarining mukofot pullari va hakamlar hay’ati (jumladan, apellyatsiya) a’zolarining ish haqlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining tegishli hisob raqamlariga o‘z vaqtida o‘tkazish choralarini ko‘rish;

Asosiy olimpiadaning hakamlar hay’ati va apellyatsiya komissiyasi tarkibi hamda Al-Xorazmiy nomidagi tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining respublika bosqichi yo‘riqnomasi loyihasini tasdiqlash uchun Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etish;

Al-Xorazmiy nomidagi tabiiy fanlar (Science) olimpiadasining

respublika bosqichi Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi (respublika) bosqichi bilan bir vaqtda va bir joyda o‘tkazilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova)ga Asosiy olimpiada hamda Al-Xorazmiy nomidagi aniq va tabiiy fanlar (Science), Davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan fizika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasidagi Respublika olimpiadalarining tuman (shahar), hududiy va respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini o‘z vaqtida chop etish vazifasi yuklatilsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda olimpiada ishtirokchilarini barcha xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda belgilangan hududlarga ko‘rsatilgan muddatlarda yetib borishini va o‘z manzillariga qaytishini ta’minlasin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Andijon, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

Asosiy olimpiadani o‘tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, ishtirokchilar kelishi uchun qulay bo‘lgan joyni belgilash;

Asosiy olimpiadani shaffof, xolis va adolatli o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida auditoriyalarda yoki umumiy o‘tkazish joylarida kuzatuv kameralarini o‘rnatish;

Asosiy olimpiada ishtirokchilarining olimpiada o‘tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta’minlash;

Asosiy olimpiada ishtirokchilarining yashashi va ovqatlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish;

mahalliy hokimlik hamda homiylarni jalb etgan holda Asosiy olimpiada ishtirokchilari va g‘oliblari uchun sovg‘alar tayyorlash choralarini ko‘rish;

Fan olimpiadalari markazi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Andijon, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hisobiga o‘tkazib

berilgan mablag‘lar hisobidan Asosiy olimpiadaning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimida, hakamlar (jumladan, apellyatsiya) hay’ati a’zolariga taqdirlash marosimidan keyin naqd pul ko‘rinishida taqdim etish hamda amalga oshirilgan xarajatlar yuzasidan Fan olimpiadalari markaziga ma’lumot kiritish.

Asosiy olimpiada ishtirokchilarini hududdagi diqqatga sazovor joylarga sayohatini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari va vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko‘rsin.

10. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori A.Ubbiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 29-yanvar,
24-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 29-yanvardagi
24-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Asosiy olimpiadaning IV (respublika) bosqichini fanlar kesimida hududlarda o‘tkazish
JADVALI

T/r	Hudud nomi	Fanlar nomi	O‘tkazish vaqti
1.	**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**	Fizika Kimyo Biologiya Tabiiy fanlar *(Al-Xorazmiy, 7-8-sinf)*	2025-yil 24-27-mart 27-30 mart
2.	**Navoiy viloyati**	Ona tili va adabiyot Geografiya Tojik tili Qozoq tili Qoraqalpoq tili	2025-yil 24-27-mart
3.	**Surxondaryo viloyati**	Tarix Davlat va huquq asoslari O’zbek tili (Davlat tili) Rus tili va adabiyoti	2025-yil 24-27-mart
4.	**Andjon viloyati**	Ingliz tili Nemis tili Fransuz tili	2025-yil 24-26 mart
5.	**Qashqadaryo viloyati**	Matematika Informatika va axborot texnologiyalari	2025-yil 25-28-mart
Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida			
6.	**Samarqand viloyati**	Ona tili va adabiyot Matematika Tarix Rus tili va adabiyoti	2025-yil 24-27-mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2025-2026-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga malakali o‘qituvchi pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son qaroriga muvofiq 2025-2026-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash maqsadida buyuraman:

1. Quyidagilar:

2025-2026-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha baholash mezonlari 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirishning namunaviy jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri,Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari 2025-yilning 15-fevraliga qadar tasdiqlangan baholash mezonlari asosida umumta’lim maktablari faoliyatini baholasin va ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatiga kiritiladigan maktablar to‘g‘risida taklif kiritsin.

3. O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi (O.Zokirov):

a) Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilarini tegishli o‘quv yilida o‘qishga qabul qilishda oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imtihoni natijalari bo‘yicha o‘rtacha ball ko‘rsatkichlari;

Axborot-tahlil bo‘limi boshlig‘i (S.Obidov) bilan birgalikda 2025-yil 1-martgacha bo‘lgan muddatlarda umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan “Zamonaviy maktablar”ga qo‘yilgan

talablar asosida baholash natijalari;

Fan olimpiadalarini o‘tkazish markazi (T.Shermatov) bilan birgalikda tomonidan tegishli o‘quv yilida o‘tkazilgan fan olimpiadasining tuman (shahar) bosqichida ishtirok etgan o‘quvchilarning natijalari;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda “erp.maktab.uz” axborot tizimi

bazasida shakllantirilgan umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning sifat tarkibi (malaka toifasi va oliy ma’lumot) to‘g‘risida maktablar kesimida taqdim etiladigan ma’lumotlar bilan hududiy boshqarmalar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlarni taqqoslagan holda tahlil qilib, umumlashtirsin;

b) umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirib, tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritsin.

4. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 29-yanvar,
28-son

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
XXilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2025-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2025.